

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA KAFEDRASI

**«NUROTA TOG'-O'RMON QO'RIQXONASINING
EKOTURISTIK IMKONIYATLARI» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta'lif y o'nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi A.Ahmedov

ILMIY RAHBAR
dots.M.R.Usmonov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomma «__»_____ 2018 yil

Samarqand-2018

Mundarija

| | |
|---|-----------|
| Kirish..... | 3 |
| I BOB. O`ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI..... | 9 |
| 1.1.O`zbekistonning ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanish xususiyatlari..... | 9 |
| 1.2.O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari..... | 13 |
| 1.3.O`zbekistonning ekoturistik imkoniyatnları..... | 18 |
| 1.4.O`zbekistonda turizmni rivojlantirishning geografik asoslari va dinamikasi..... | 26 |
| 1.5.Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishning geografik xususiyatlari...32 | |
| 1.6.Turizmni rivojlantirishda ekoturistik marshrutlarini yaratishning ahamiyati..... | 42 |
| II BOB. NUROTA TOG‘ – O’RMON DAVLAT TABIIY QO’RIQXONASIDAN EKROTURIZMDA FOYDALANISHDAGI IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR..... | 47 |
| 2.1.Nurota tog‘ – o’rmon davlat tabiat qo’riqxonasing tabiiy –geografik tafsifi..... | 47 |
| 2.2.Nurota tog‘ – o’rmon davlat tabiat qo’riqxonasida ekroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari..... | 54 |
| 2.3.Qo’riqxonasidan ekroturizmda foydalanishda turistlarning hayoti havfsizligini ta’minlash chora –tadbirlari..... | 57 |
| III BOB. NUROTA TOG‘ – O’RMON DAVLAT TABIAT QO’RIQXONASIDA EKROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 62 |
| 3.1.Nurota tog‘ – o’rmon davlat tabiat qo’riqxonasidan ekoturizmda zamonaviy reklamalarini yaratish..... | 62 |
| 3.2.Nurota tog‘ – o’rmon davlat tabiiy qo’riqxonasiga ekoturistik marshrutni yaratish..... | 68 |
| Xulosa..... | 74 |
| Foydalangan adabiyotlar..... | 76 |

Kirish

Mavzuning dolzarbliji. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog`lomlashadirish, ma`rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan bir yil muddatga jo`nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

O`zbekistonning davlat tabiat qo`riqxonalaridan ekoturizmda foydalanish masalalari hozirgacha hal qilinmagan. Lekin ekoturizmning ertasini o`ylagan, ekoturizmni rivojlantirish tabiat muhofazasiga ham moliyaviy ham ma`naviy yordam berishini bilgan davlat tabiat qo`riqxonalarini rahbarlari asta-sekinlik bilan ichki ekoturizmni rivojlantirishga kirishmoqdalar. Ana shunday davlat tabiat qo`riqxonalarining biri Nurota davlat tog`-o`rmon qo`riqxonasi hisoblanadi. Bu qo`riqxonadan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanishda hozirgacha standart marshrutlar talablariga javob beradigan ekoturistik marshrutlari ishlab chiqilmagan. Shu sababli bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini-«Nurota tog`-o`rmon qo`riqxonasining ekoturistik imkoniyatlari» deb belgiladik. Ekoturizmni rivojlantirish uchun Nurota davlat tog`-o`rmon qo`riqxonasiga ekoturistik turistik marshrutini ishlab chiqishdan iborat.

XX asrning ikkinchi yarim yilliklaridan boshlangan ilmiy- texnika rivoji tabiat va uning resurslaridan rejasiz, ayovsiz foydalanish davrini boshlab berdi. Qudratli texnika er bag`rining 10 km chuqurligicha kirib bordi. Xalqaro bozordagi raqobat tabiiy resurslardan qayta ishlab mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirdi. Sayyoramiz atmosferasining zaharli gazlar bilan ifloslanishi, unumdon erlarning qishloq xo`jaligi foydalanishidan tobora ko`plab maydonlarda chiqarilishi, biologik resurslardagi turlarning er yuzidan yo`qotilishi kuchayib borayotganligi, dunyo okeanining ifloslanib borishi o`tgan asr ohirlarida xalqaro hamjamiyatni tashvishga solib qo`ydi.

Yer yuzida insoniyat hayotini saqlab qolishning ko`pdan-ko`p yo`llari izlandi. Shu izlanishlardan biri ekoturizmni tashkil qilish muammolari edi. Hozirgi

yillargacha o‘tgan muddatda ekoturizmni rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, mohiyatiga, ko‘p yillik tortishuvlardan keyin baho berildi. Ekoturizmning tamoyillari belgilandi, shu bilan birga ekoturizmni rivojlantirishning ko‘plab metodlari, amaliyoti va xalqaro miqyosda tan olingan modellari yaratildi.

Tabiat muhofazasida va insonlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda ekoturizmning muhim o‘rnini dastavval tushungan davlatlar qayd qilingan metodlar va xalqaro modellarni hech ikkilanmasdan qabul qildilar va o‘z davlatlarida ekoturizmni jadal suratlar bilan rivojlantirib bormoqdalar.

Insoniyat oldida turgan sayyoraviy muammolarni insoniyatning o‘zi bartaraf etishi kerak va bartaraf etishga majbur. Shu nuqtai-nazardan ham, ekoturizmni rivojlantirish dunyodagi barcha davlatlarning davlat siyosatiga aylanib borayotganligida ham o‘z vaqtida anglab olishimiz kerak. BMTning konferensiyasi va sammitlarida 150 dan ortiq xalqaro tabiat muhofazasi haqidagi hujjatlarning qabul qilinishi natijasida ekologik boshqaruv milliy mexanizmlarining ko‘plab zaruriy tadbirlari yaratilmoqda. Bu hujjatlardagi eng muhim tamoyillar:

- har qanday ishlab chiqarish sohalarida ekologik boshqaruvni amalga oshirish ta’minlansin;
- har bir davatlarda yashayotgan xalqlarning ekologik bilimi va madaniyatini shakllantirish ekologik muammolarni hal qilishdagi birinchi imkoniyatlar, kuchlar ekanligi alohida ta’kidlansin.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoevning «O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to`g‘risida»gi 2016 yil 2-dekabrdagi PF-4861 sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, istiqbolli islohatlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident farmonida:

- “Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanishda;
- ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish”;

- Respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning talablari va ehtiyojlariga javob beradigan turizm industriyasi ob'ektlarini rivojlantirish; belgilangan.

Farmon turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishni ta’minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, uni mamlakat iqtisodiyotini barqaror o`stirishning, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishning, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishda turizm rolini kuchaytirishning qudratli vositasiga aylantirishga qaratilgandir. Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tadbiq qilishga, turizmni hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo`lib xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan va “Farmon”da ekoturizmni rivojlantirish alohida ta’kidlanganligi ham, ekoturizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning echimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tadqiqotlarni boshlashimizning vaqtি keldi.

Ekoturizmni rivojlantirishdagi ko`plab muammolar ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishga kirishganimizdan keyingina aniqlanmoqda. Hozirga kelib respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishda echimlari jiddiy bo‘lgan muammolari ham yuzaga chiqmoqda. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z echimini kutib turgani, ekoturizm uchun malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda davlat tabiat qo`riqxonalaridan foydalanishda bu qo`riqxonalarga ekoturizm-rekreatsiya marshrutlarini ishlab chiqishning dolzarbliyi yuqorida keltirilgan asoslardan iborat.

Mavzuning o`rganilganlik holati. Vatanimizning ekoturizmning taraqqiyot salohiyati nihoyatda katta va uni jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu salohiyat va imkoniyatlardan jahonda ekoturizmi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda oqilona foydalanish hamda ilmiy asosda xatolarsiz amalga oshirish lozim. Turizmning turlari bo‘yicha ixtisoslashuv mamlakatimiz milliy turizmidagi eng og‘riqli masalalardan biri hisoblanib qolmoqda. Turizmni rivojlantirishdagi bu muhim masalani hal qilishga

kirishmayotganligimizning o‘zi turizm sohasidagi muammolarni ilmiy-amaliy jihatlardan tadqiq qilishga e’tiborsizligimiz hisoblanadi.

Ekoturizmning mohiyati va mazmuni haqida «Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi», «Xalqaro turizm jamiyatি», «Yovvoyi tabiat umumjahon jamg‘armasi» va boshqa ko‘plab xalqaro tashkilotlar Butunjahon turizm tashkilotining ekoturizm haqidagi ta’rifini qabul qildi. Dunyo hamjamiyatiga xizmat qiluvchi yuqoridagi xalqaro markazlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari har xil bo‘lsada, ekoturizmning o‘mini belgilashdagi xulosalari deyarli bir xil. CHunki, ekoturizmni targ‘ib qilayotgan, BTT, XTJ tabiatni muhofaza qiluvchi-TMKHI ning ish tartibi, maqsadlari doimo biri-biriga qarshi turadi. Dastlabki ikki xalqaro jamiyat tabiatdan turistik maqsadlarda foydalanish tarafdori, keyingi xalqaro tashkilot esa tabiatni muhofaza qilish tarafdori.

Ekoturizmning jahon miqyosida jadal rivojlanib borayotganligining yana bir sababi ham shundaki, tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro markazlar ham ekoturizmni rivojlantirishni quvvatlamоqda. Ekoturizm ning mazmuni va mohiyati haqidagi fikr va mulohazalarga yana bir aniqlikni kiritadigani R.A.Islomovaning xulosalaridir (1-Jadval). Ushbu xulosalar ekoturizmning umumiyl turizmga nisbatan farqlanishlari ga asoslangan bo‘lib, ekoturizmning asl mohiyati va mazmunini tushunib olishga yordam beradi.

Mamlakatimizda hozirga kelib ekoturizmning muammolarini o‘rganish va rivojlantirishdagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar boshlandi (SHamuratova, 2011).

Shu nuqtai-nazardan, ekoturizm-rekreatsiyaning asosiy resurslari bo`lgan davlat tabiat qo`riqxonalaridan ekoturizmda foydaonish masalalarini ilmiy-amaliy jihatlardan tadbiq qilish mamlakatimiz ekoturizmini rivojlantirishdagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq atrof muhitni, tabiatni muhofaza etishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish to‘g‘-risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish

to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir. Eng asosiysi, tabiatimizni asrash, muhofaza qilish va rejali foydalanish uchun uchun barcha ishlar qilibmoqda. Ana shu ishlarning o‘z vaqida bajarilishi va samaralar berishida mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish betakror tabiatimiz va uning tabiiy resurslarini saqlab qolish, muhofaza qilish va ko`paytirib borishda albatda ekoturizmni rivojlantirishimiz kerak. Vatanimizda ekoturizmni rivojlantirishda ekoturizmning asosiy resurslaridan biri bo`lgan davlat tabiat qo`riqxonalaridan foydalanish masalalari shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Har qanday ekoturistik resurs ushbu resursga birinchi navbatda ekoturistik marshrutlar ishlab chiqilib bu ekoturistik marshrutlarning reklamalari ekoturizm bozoriga chiqarilgandan keyin ekoturistlarni qabul qila boshlaydi.

O`zbekistonning davlat tabiat qo`riqxonalaridan ekoturizmda foydalanish masalalari hozirgacha hal qilinmagan. Lekin ekoturizmning ertasini o`ylagan, ekoturizmni rivojlantirish tabiat muhofazasiga ham moliyaviy ham ma’naviy yordam berishini bilgan davlat tabiat qo`riqxonalari rahbarlari asta-sekinlik bilan ichki ekoturizmni rivojlantirishga kirishmoqdalar. Ana shunday davlat tabiat qo`riqxonalarining biri Nurota davlat tog`-o`rmon qo`riqxonasi hisoblanadi. Bu qo`riqxonadan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanishda hozirgacha standart marshrutlar talablariga javob beradigan ekoturizm-rekreatsiya marshrutlari ishlab chiqilmagan. SHu sababli bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini-«Nurota tog`-o`rmon qo`riqxonasiga ekoturizm- rekreatsiya marshrutini yaratish» deb belgiladik.

Bitiruv malakaviy ishning o`rganish ob`ekti- Nurota davlat tog`-o`rmon qo`riqxonasining ekoturistik imkoniyatlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi- Ekoturizm-rekreatsiyani rivojlantirish uchun Nurota davlat tog`-o`rmon qo`riqxonasining ekoturistik marshrutini ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Nurota davlat tog`-o`rmon qo`riqxonasining tabiat muhofazasidagi faoliyatini o`rganish;

- ✓ Nurota davlat tog‘-o`rmon qo`riqxonasining tabiiy iqlim xususiyatlarini o`rganish;
- ✓ Nurota davlat tog‘-o`rmon qo`riqxonasi dagi muhofaza etilayotgan asosiy hayvonlar va o`simgiliklar turlariga ekoturizmda foydalanish jihatlaridan tavsiflar tayyorlash;
- ✓ Nurota davlat tog‘-o`rmon qo`riqxonasi ga ekoturizm-rekreatsiya marshrutlarini yaratishning imkoniyatlari, shart-sharoitlarini o`rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati- Nurota davlat tog‘-o`rmon qo`riqxonasi ga ishlab chiqilgan ekoturizm-rekreatsiya marshruti turistik firmalarga, turistik ekskursiya tashkilotlariga, turistik tashkilotlarga va turizm mehmonxona xo`jaliklariga ekoturizmda foydalanish uchun tavsiya qilinadi. Ushbu yaratilgan ekoturizm- rekreatsiya marshrutida xalqaro ekoturizmni rivojlantirishda foydalanish variantlari keltiriladi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati dan iborat. Ishda **2 ta jadval, 16 ta rasmlar 2 ta chizma, 1 ta foto-reklama va 1ta sxema** keltirildi. **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati 17 manbadan** iborat. Ishning **hajmi 79** betdan iborat.

I BOB. O`ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING

GEOGRAFIK ASOSLARI

1.1.O`zbekistonning ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanish xususiyatlari

O`zbekiston o`zining uristik resurslar salohiyati bo`yicha Markaziy Osiyoda oldingi o`rinlardan birini, dunyo bo`yicha esa yuqori o`rnlarni egallaydigan 10-15 mamlakatlar ichidan o`rin olgan. Respublika hududida turli davrlarda vujudga kelgan to`rt mingdan ortiq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar mavjud. Turistik mintaqaning jozibadorligini ajratuvchi asosiy omillardan biri bu O`zbekistonning ekzotik tabiatni, boy landshafti, hayvonot va o'simlik dunyosining rang-barangligidir. Bugungi kunda muhofaza ostiga olingan tabiiy hududlar ekologik turizmning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 9 ta davlat qo'riqxonalari mavjud bo'lib, ular 209,6 ming ga yerni qamrab olgan, qo'riqxona-lardan biri (Chotqol tog'-o'rmon) davlat biosfera maqomini olgan. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tasarrufida Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi (Toshkent viloyatida), Hisor tog'-archa qo'riqxonasi (Qashqadaryo viloyatida). Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tasarrufida Zomin tog'-archa (Jizzax viloyatida), Baday-To'qay tekislik-to'qay (Qoraqalpog'iston Respublikasida), Qizilqum qumli-to'qay (Buxoro va Xorazm viloyatlarida), Zarafshon tekislik-to'qay (Samarqand viloyatida), Nurota tog'-yong'oq (Jizzax viloyatida), Surxon tog' o'rmon (Surxondaryo viloyatida) qo'riqxonalari hamda Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufida Kitob geologik qo'riqxonasi faoliyat yuritmoqda. O'simlik dunyosi, tirik organizmlar qatoridan joy olgan tarzda, ekologik tizimlarda o'z o'rniga va ahamiyatiga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi 200 yil mobaynida o'simlik dunyosi roppa-rosa ikki barobarga qisqargan. Yer

kurrasida uchraydigan 600 ming turdan ortiq yovvoyi o'simlik turlaridan O'zbekistonda bor-yo'g'i 4 ming turi uchraydi, xolos.

O'zbekistonning iqlim sharoiti dam olish va ekoturizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Farg'ona va Toshkent viloyatlari tabiat yodgorliklariga boy bo'lgan hududlar bo'lib, ommaviy ekoturizm markazlari bo'la oladi. Bu viloyatlarda ajoyib g'orlar, karstlar, sharshara va shovvalar, buloq, jilg'a va soylar, daralar, qoyali rel'ef shakllari, ochilib qolgan yotqiziqlar va boshqa ajoyib tabiat yodgorliklari uchraydi.

Hozirgi kunda faqatgina Samarqand viloyatidagi Zarafshon qo'riqxonasi va Buxoro viloyatidagi "Jayron" ekomarkazi doimiy ravishda sayyoohlarni qabul qilmoqda. Boy imkoniyatlarga ega bo'lgan Chotqol, Zomin, Nurota, Hisor qo'riqxonalari, Amudaryo qayirlaridagi to'qaylar amaliy jihatdan foydalaniilmayapti. Shuningdek, ajoyib tog' va cho'l landshaftlari, botanik, geologik va gidrogeologik ob'ektlar sayyoohlarni o'ziga jalb etib, ekoturizmning rekreatsion elementini tashkil etib, sport turizmi, alpinizm, tog' chang'isi, ot sporti va boshqa faol dam olish turlarini qamrab oladi. Lekin, O'zbekistonda tabiatga qilingan hamma sayohatlarni ham ekoturizm deb atay olmaymiz. Chunki shaharliklarning toqqa chiqib dam olishlari, agarda u ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lmasa, ekoturizm emas, balki tabiiy turizmdir. Masalan, Toshkentliklarni 90 foizi 100-130 km radiusda tabiat qo'yniga bir kunlik tashrif qiladilar. Mazkur turizm stixiyali ravishda tashkil etilib ekologik va sanitar talablarga rioya qilinmaydi. Natijada tabiiy muhit keskin ravishda ifloslanadi. Ularning aksariyati "yovvoyi turlar"dan iborat bo'lgani uchun ham, sayohatchilarning tabiatga yetgazgan zarari hamda uni qoplash haqida o'ylab ham ko'rilmaydi. Bunday sayyoohlarni jonkuyar ekolog, ekoturistlarning respublika assosatsiyasi boshlig'i V.Soy "qozon-turizm", ya'ni yaxshi ovqatlanib dam olishni xush ko'radigan xudbin turistlar, deb atashi bejiz emas.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra ularning umumiyl sonidan oilali turistlar 60%, korxonalar jamoasi 30%, tasodify

kompaniyalar 7%, boshqalari esa 3% ni tashkil etadi. Har bir ekoturist uchun sarf-harajatlar sutkasi 40 dan to 70 ming so'mgacha boradi. Kundalik sarf-harajatlarning umumiy ko'rsatgichi ovqatlanish, transport, joylashish, xizmat ko'rsatish turi va sifatiga bog'liq ravishda oshib boradi. Shaharliklarning "ekoturistik sayohati" ko'pi bilan 5-7 kunga cho'ziladi. Aksariyat hollarda uning davomiyligi bir kundan oshmaydi va yakshanba yoki bayram kunlariga to'g'ri keladi. Bu "qozon-turist" larning tabiiy muhitga bo'lgan bosimini yil davomida notejis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatiga olingan turistik korxonalarining atigi 5 foizi ekoturizmga yo'naltirilgan. Ularga tor doirada faoliyat olib boruvchi-ovchilik, baliqchilik, safari kabi ekoturistik, to'g'rirog'i tabiiy turistik firmalar kiradi. Katta-katta turistik firmalar aksariyat hollarda aralash turdag'i sayohlikni taklif qiladilar. Hattoki «Ekosan-tur» kompaniyasi ham bundan mustasno emas. Buning o'ziga yarasha sabablari bor, albatta. Sof ekologik turizm haligacha respublikamizda turizmning mustaqil sohasi sifatida qaralmagan va shuning uchun o'zi mistaqil holatda yetarli darajada daromad olib kelishga qodir emas. Milliy g'urur, milliy mafkura yoki ma'naviyat hamda ma'rifat nuqtai nazardan ham ushbu qo'shma ekoturlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Respublikaning zamонавиу xo'jalik yuritish infrastrukturasida ixtiyoriy ko'rinishdagi mahalliy aholiga yoki chet el turistlariga xizmat ko'rsatish talab darajasida emas. Bu esa tashqi turistik bozorda o'zbek ekoturizm mahsulotlariga bo'lgan talabni tushirib yubormoqda. Chet elliklarning mahalliy aholiga qaraganda o'zimizning milliy an'analarimiz, tarixiy obidalarimizga qiziqishlari ko'proq. Lekin ekoturistik potentsialimizni past deb bo'lmaydi. Faqatgina uning ochilmagan imkoniyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Bunda demokratik prinsiplar va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin raqobat muhitini yaratish, ekologik-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy aholining o'z yurti tabiatiga bo'lgan ishtiyoqining pastligi Respublikamizda "O'lkashunoslik", "Geografiya", "Ekologiya" kabi fanlarni bolalarning yoshligidan o'qitilishiga yetarli darajada e'tibor

berilmayotganligidadir. Shu bois mahalliy ekoturistlarning yangi o'zlashtirilmagan ekoturlarga qiziqishi kam va ular o'zi bilgan tabiiy muhitidan chetga chiqmaslikka harakat qiladilar.

Hozirgi kunda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning tegishli bo'linmalari ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida "Jayron ekomarkazi»ga qo'shni bo'lган 27300 ga maydonda Markaziy Osiyoda kam uchraydigan noyob 6 juft tuyoqli hayvonlarni (jayron, buxoro qo'yи, buxoro bo'g'isi, yovvoyi echki, burama shoxli echki - marhur, yovvoyi cho'chqa kabilarni) saqlash, ko'paytirish va himoya qilish maqsadida milliy bog' tashkil etish borasida ilmiy-iqtisodiy asoslangan loyiha tuzish ishlarini boshlab yubordi. Toshkent shahridan 100 km janubi-sharqda joylashgan "Sayhun" ho'jaligida (367 hektar) Qo'mita Markaziy Osiyoda yo'q bo'lib ketish arafasida turgan juft tuyoqli hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va ularni tabiatga qaytarish maqsadida parvarishxona qurib bitkazdi. Ushbu maskan mahalliy va chet el ekoturistlarni turizmning tabiatga sayohat va ekosafari turlarini o'tkazish uchun juda qulay joydir. CHunki bu yerda nafaqat yuqorida nomlari tilga olingan hayvonlar, balki Markaziy Osiyoda qirilib ketish arafasida turgan noyob Buxoro bug'isi, Buxoro qo'yи, Severtsova qo'yи, Buxoro jayronlari, Burama shohli morho'r echkisi kabi boshqa turlardagi kamyob juft tuyoqli hayvonlarni yashash va ko'paytirish uchun yetarli ozuqaviy resurslar va himoya usullari mavjuddir.

Surxondaryo viloyati noyob hayvonot va o'simlik dunyosini tiklash hamda ko'paytirish, chet el ekosayohatchilarni yovvoyi tabiat bilan tanishtirish, dam olish, ov va baliq ovlash maskani yaratish maqsadida 2006 yil 9 mart kuni Uzbekiston Respublikasi Davlat bionazorati nozirligi qoshida Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani, Termiz shaxridan 30 km shimoli-sharqida, jami 1034 hektar maydonni tashkil etgan Oqtepa suv omborining atrofida joylashgan "Ok tepe" tabiat bog'ini tashkil etdi. Mazkur maydon shimol, sharq va janub tomonidan 140 hektarni tashkil etgan ko'l bilan tabiiy chegaraga ega. Ushbu hududda hayvonlardan-to'ng'iz, yovvoyi cho'chqa, chiya bo'ri, qushlardan-qirg'ovul, yovvoyi o'rdak hamda suvda suzuvchi yovvoyi qushlar, baliqlar mavjud. Hozirgi

kunda unda yovvoyi o'rdak va g'ozlar ko'paytirilmoqda, ekoturistlar uchun dunyo talablariga javob bera oladigan mehmonxona qurilmoqda, hayvonlar muhofazasiga tegishli sun'iy to'siqlar o'rnatilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, to'g'ri va yaxshi yo'lga qo'yilgan ekoturizm tarmog'i, atrof-muhit muhofazasi va biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ijobjiy natijalarni berishi mumkin.

1.2.O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyalardan foydalanishning dolzARB masalalari

Bugungi kunda O'zbekistonda yangi iqtisodiy muhit yuzaga kelgan va bozor munosobatlari mustahkam bazaga ega bo'lsada, iqtisodiy islohotlar dasturlari makrodarajadan aniq ishlab chiqarish darajasiga o'tishida ma'lum muammolar yuzaga kelmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida innovatsion jarayonning asosiy impulsi bo'lgan, Prezident tamonidan qabul qilingan «Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 2017 yil 16 iyuldagি qaror mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgandir. Ushbu qaror jamiyatning mayjud ilmiy-texnik salohiyati talablaridan kelib chiqqan holda, kelajakda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalar rivojlanishining kompleks tadbirlarini belgilab berdi.

Iqtisodiyotdagi innovatsion va investitsion faoliyatni jadallashtirish talablari kuchayib borayotgan bir paytda, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm xizmatlar bozorining roli tobora ortib bormoqda. Ushbu sharoitda turizm xizmatlar bozorida innovatsion jarayonlardan foydalanishning samarali mexanizmlarini izlab topish va qo'llash ehtiyoji paydo bo'lmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish muammolari bo'yicha nashr qilingan ilmiy ishlari, metodologik ishlanmalar va amaliy tavsiyalarni o'rganish natijalari O'zbekistonning turizm xizmatlar bozorida innovatsion jarayonlarni qo'llash mexanizmlaridan amaliy foydalanishning nazariy asoslari majmuaviy ravishda

tadqiq etilmaganligini ko‘rsatmoqda. Shunga ko‘ra hozirgi paytda ushbu muammoning echimini topish o‘ta dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Xalq xo‘jaligining turli sohalaridagi innovatsion jarayonlar tadqiqiga oid ko‘pgina adabiyotlar chop etilgan hamda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Masalan, ba’zi olimlar o‘z ishlarida MDH davlatlari hamda boshqa mamlakatlardagi ilmiy-texnika va innovatsion faoliyatning zamonaviy tendensiyalarini aniqlashga va ushbu mamlakatlarda olib borilayotgan innovatsion siyosatning mazmun-mohiyatini ochib berishga uringanlar. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu urinishlar fan, ishlab chiqarish va iste’molning o‘zaro integratsiyalashuv jarayonini ifodalaydi. Innovatsion faoliyatning natijasi yangi mahsulot yoki sifat jihatdan yangi xususiyatli mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish vositalarini joriy qilish, yangi bozorni o‘zlashtirish, xom ashyo, butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlarning yangi manbalarini izlab topish, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etishda ko‘rinadi. Innovatsion faoliyatni boshqarishning muhim jihatni innovatsion infratizimni rivojlantirishdir. Innovatsion infratizim ishlab chiqarishdagi innovatsion jarayonlarning rivojlanishini bevosita ta’minlovchi ilmiy texnikaga doir bilimlar va xizmat ko‘rsatishni va umumlashtiruvchi iqtisodiyot sohalaridan biri hisoblanadi. U o‘z tarkibiga innovatsion, axborot, konsultatsiya, hisoblash, o‘quv va boshqa markazlari, ilmiy-texnika birjalari, investitsion, tashkiliy va innovatsion faoliyatning barcha bosqichlari doirasidagi o‘zaro uzviy bog‘langan boshqa xizmatlarni qamrab oladi.

Hozirgi paytda turizm rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq anglash uchun innovatsion yondashuvlarning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish lozim bo‘lmoqda. YAngi bilimlarni o‘zlashtirish turizmning yangi tizimini joriy qilish mexanizmini faollashtirishga imkon yaratib beradi. Innovatsion konsepsiyanı nazariy jihatdan turizm tizimini tavsiflash shakli sifatida tasavvur qilish mumkin bo‘ladi. Butun tarmoq bo‘yicha rivojlanish jarayonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, alohida firmalarda joriy qilinadigan yangilik har doim ham tubdan o‘zgartirilgan voqelik bo‘lavermaydi. Chunki, bu yangilik boshqa firmada, boshqa sohada qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin, mazkur davrda undan ma’lum darajada samara

olingan, yoki aksincha olinadigan daromad miqdorini tushirib yuborgan bo‘lishi ham mumkin. Shunga qaramasdan, turistik firma yangilik tarafdorlari va unga qarshilar fikrini o‘rganib chiqadi va ushbu yangilikni joriy qilishda tavakkal qiladi. Yangilikni joriy qilishning muhim xususiyatlaridan biri samaraga erishmaslik havfidir ammo tavvakalchilik tashkilotda innovatsion faoliyatning majburiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Turizmning innovatsion jihatlarini o‘rganish iqtisodiy faoliyatning odatdagি muammolariga (masalan, tarmoqda kechayotgan tarkibiy o‘zgarishlarga) yanada chuqurroq nazar tashlashga undaydi. U yangilikning real iqtisodiy munosabatlarga moslashishiga imkon yaratib beradi. Innovatsion faollikni oshirish iqtisodiy vazifalarni echish vositalari orqali amalga oshiriladi.

Turistik xizmatlar bozorini innovatsion faoliyat nuqtai nazaridan tadqiq qilishda, bizningcha, quyidagi ikki turdagи innovatsiyalarni farqlash lozim bo‘ladi:

- yangilanadigan innovatsiyalar ya’ni, turistik mahsulotning mohiyatini o‘zgartirmasdan turib, uning alohida ko‘rsatkichlarini yangilash amalga oshiriladi;
- tubdan o‘zgartiradigan shiddatli innovatsiyalar – bunda butun turistik mahsulot ishlab chiqishning yangi, tamoman yuqori darajasi nazarda tutiladi.

Turistik xizmatlar bozorini innovatsion tadqiqot qilishda turistik korxonalar darajasida quyidagi innovatsion yo‘nalishlarni hisobga olish lozim bo‘ladi:

- odatdagи xizmatlarni taqdim etganda yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish;
- yangi xususiyatli xizmatlarni joriy qilish;
- oldin foydalanilmagan yangi turistik resurslarni harakatlantirish;
- odatdagи turistik xizmatlarni ishlab chiqish va iste’mol qilishni tashkil etishdagи o‘zgarishlar;
- turistik xizmatlar va tovarlar sotishning yangi bozorlarini aniqlash hamda ulardan foydalanish.

Xalqaro tajribalarning tahlili guvohlik berishicha, O‘zbekiston hozirda qisqa muddatlar ichida ichki va xalqaro bozor uchun raqobatbardosh vositalar yaratish imkoniga ega bo‘lgan yuqori ilmiy-texnik salohiyatli mamlakatlar qatoridan o‘rin

olmoqda, u istiqbolli sohalarni yaratish faoliyatini amalga oshirish bosqichida turibdi. Natijada, biz milliy innovatsion tizim (MIT) rivojini hamda uning jahon ilmiy-texnik tizimiga integratsiyasi jarayoni kechayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishning yangi innovatsion modeliga o‘tishiga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan mamlakatlar tashkiloti Butunjahon turizm tashkiloti Ijroiya kengashi sessiyasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida « Bugungi kunda dunyoda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan vaziyat, globallashuv jarayonlarining jadallahuvi, tez-tez takrorlanayotgan jahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozlari xalqaro turizm rivoji yo‘lida turli muammolar tug‘dirib, uning oldiga yangi-yangi talablar qo‘yayotganini, tabiiyki, biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz», deb ta’kidladilar hamda mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirish va uning samaradorligini belgilaydigan quyidagi ettita eng muhim omillarni belgilab berdilar:

- 1) butun dunyoda, turli mintaqalarda, sayyoohlarni qabul qiladigan har bir davlatda tinchlik, havfsizlik, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash;
- 2) iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, aholining hayot darajasi, daromadi va farovonligining oshib borishi;
- 3) bugungi kunda xalqaro turizm o‘rta sinf uchun dam olishning keng tarqalgan turiga aylanib borishi;
- 4) sayyoqlik infratuzilmasining rivojlangani, sayyoohlar uchun mo‘ljallangan ob’ektlarning har tomonlama maqbulligi, transport va mehmonxona xizmatlari va umuman, sayyoqlik logistikasi bilan bog‘liq barcha xizmatlarning qulayligi, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilgani;
- 5) mazkur sohada ko‘p narsa turizm sanoatiga yo‘naltiriladigan investitsiyalar darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu byudjet mablag‘larini va mazkur sohaga mablag‘ sarflashi uchun xususiy kapital va biznesga davlat tomonidan zarur imtiyoz, preferensiya va rag‘batlanadiradigan omillar yaratilishini, infratuzilma,

mehmonxona xo‘jaligi, transportni rivojlantirish, zamonaviy aloqa va boshqa xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi;

6) yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi turizm sohasini rivojlantirishning eng muhim va hal qiluvchi omili;

7) viza masalasini va turizm bilan bog‘liq boshqa byurokratik rasmiyat chiliklarni soddalashtirish, xususan, sayyohlik firmalari faoliyati uchun zarur moliyaviy kafolatlar berish hozirgi bosqichda xalqaro turizmni jadal rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu muhim omillar bugungi kunda turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda va turizm bozorini mukammal shakllantirish tamoyillarini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunga binoan turizm xizmatlar bozorining quyidagi innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari taklif qilindi:

- ✓ huquqiy va me’yoriy xujjatlarni joriy qilish («Turizm» to‘g‘risidagi qonunni takomillashtirish va «Innovatsion faoliyat» to‘g‘risida me’yoriy xujjatlar qabul qilish);
- ✓ korxona va turistik biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv tizimida yangiliklarni (tashkiliy innovatsiyalarni) joriy etish, jumladan, qayta tashkil qilish va yiriklashuv;
- ✓ e’tiborni mavjud turistik mahsulotni o‘zgartirishga yoki yangisini brend asosida yaratishga qaratish;
- ✓ turistik xizmatlar va tovarlar sotishning yangi bozorlarini aniqlash hamda ulardan foydalanish;
- ✓ ilg‘or axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish;
- ✓ transport va mehmonxona xizmatlarini taqdim etish hamda bron qilish jarayonini soddalashtirish;
- ✓ turistik korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatining zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish.

1.3.O`zbekistonning ekoturistik imkoniyatnlari

Ma'lumki, turizm va uning tarmoqlarini tadqiq etish masalasida turlicha yondoshuvlar va qarashlar mavjud. Ayniqsa ekoturizm yoki ekologik turizmning nazariy va amaliy masalalarida, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti masalalarida «vertikal» va «gorizontal» holatda qarashlar mavjuddir. Ekoturizm va sayyoraning tabiatini saqlab qolish va muhofaza qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar xalqaro miqyosda kuchayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda birgina 2016 yilda 450 dan ortik ilmiy makolalar xalqaro miqyosda tan olingen nashriyotlarda chop qilindi.

Insoniyat oldidagi global ekologik muammolar echimining eng maqbul yo'llaridan biri-ekanligini his qilgan holda BMT 2002 yilni «xalqaro ekologik turizm» yili deb e'lon qildi. Hozirga kelib ekologik turizm xalqaro xamjamiyatda sayyoramiz tabiatini saqdash va muhofaza kilishda kutilgan va kutilayotgan natijalarни bermoqda, deb e'tirof etmoqda. Shuni qayd etish lozimki, ekologik turizmning mazmuni va va mohiyati bo'yicha birinchi bo'lib meksikalik ekologiqitisodchi **Gektor Seballos Laskureyn** 1980 yilda o'z tadqiqotlari natijalarini bildirgan va «ekologik turizm» terminini fanga kiritgan. U - «Ekologik turizm - bu flora va faunani o'rganish va tabiat bilan tanishish, dam olish quvonchini va tabiatga yordam berish imkoniyatlarini bildirishga asoslangan sayohatdir»- deb ta'riflaydi. 1997 yilda G.S.Gujin, M.YU.Belikov, E.V.Klimenkolar Rossiyada birinchilardan bo'lib - «Ekologik turizmning asosi - atrof-muhit g'amxo'rliги va muhofazasidir» degan taklifni beradi. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu eng qulay va ekoturizmning xaqiqiy mazmuni, mohiyatini anglatadi, degan fikrni ilgari surmoqda. Bundan tashqari hozirgi kunda ham ko'pchilik olimlar ekoturizm tushunchasi va mohiyatini ochib berishda o'z fikr va mulohazalarini ilgari surmoqdalar. Bular quyidagilar:

M.B.Birjakov - «Ekologik turizmda tabiatga minimum ta'sir qilib tabiat bilan birga bo'lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg'ulari hosil bo'ladi», degan fikrni beradi.

Mashhur geograf **A.V.Drozdov** - «Eski va Yangi dunyoda bir vaqtning o‘zida mahalliy aholining an’anaviy madaniyatini xurmat qilishga, sayohatchilarning ijtimoiy va ekologik talablarini qondirishga va sayyoraviy ekologik inqirozning oldini olishga asoslangan ekoturizm shakllandi», degan fikrni ilgari suradi.

Sergeeva T.S - «Ekoturizm - bu mahalliy aholining an’anaviy hayoti tarzi saqlanib qolgan, xo‘jalik faoliyat ta’siri sezilmagan noyob tabiiy hududlarga sayohat», deb hisobladi. Uning fikricha, ekologik tur va dasturda tabiatni muhofaza qilish me’yor va texnologiyalariga riosa qilgan holda turistik jarayondagi barcha qatnashchilarning ekologik madaniyatini va mahalliy aholining hayotiy darajalarini oshiradi».

XX asr ohirlariga kelib AQSH, Kanada, Evropa davlatlari va Avstraliyada ekologik turizmni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqildi. Bu dasturlarda ekologik turizmni rivojlantirish shiorlari va talablari ishlab chiqildi. Jumladan, **AQSH ekoturizm jamiyati** - «ekoturizm -mahalliy aholi manfaatlarini e’tiborga oluvchi, tabiiy resurslarni muhofaza qiluvchi, ekotizimlarning butunligini saqlovchi, mahalliy madaniyat va tabiiy muhitni anglash uchun tabiiy hududlarga maqsadli sayohat»dir, deb hisoblaydi. **Avstraliya ekoturizm milliy strategiyasi** - «ekoturizm - ekologik barkorlik prinsiplariga va ekologik bilim, madaniyat dasturlariga amal qilishga asoslangan va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda tabiatga sayohat qilish turizmi» degan xulosani beradi.

Germaniyada ekoturizmni rivojlantirishda moliyaviy xamkorlik Federal vazirligi - «ekologik turizmda tabiatga minimum ta’sir qilish xissi madaniyati va tuyg‘usi paydo bo‘ladi, qo‘riqdanadigan hududlarga moliyaviy yordam imkoniyatlari va mahalliy aholida qo‘shimcha daromad olish manbalari hosil bo‘ladi» degan fikrni ilgari suradi.

Ekoturizm jadal rivojlantirilayotgan davlatlarning ekoturizm dasturlari asosida xalqaro tabiat va turizm tashkilotlari ham ekoturizmning ta’riflarini qabul qilishdi. Jumladan, **Butunjahon turizm tashkiloti** - «Ekoturizm- tabiat turizmining barchasini o‘zida mujassamlashtirib, tabiiy hududlarga ma’suliyat

bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi», deb hisoblaydi.

O`zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish «Konsepsiysi»da - «ekoturizm deganda nafakat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning amalga oshirilishi yordamida ekologiya muammolarini xal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisi ni tushuniladi», degan ilmiy xulosani beradi.

Xalqaro turizm jamiyati (XTJ) - «Tabiiy hududlarga ma'suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta'minlaydi va mahalliy xalkning turmush darajasini yaxshilaydi», degan g'oyani ilgari suradi.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi - «Ekologik turizm yoki ekoturizm - tabiat muhitiga nisbatan ma'suliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga zyon etkazmagan holda, hamda tabiatning betakror, jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilgan holda tabiat rivojiga ko'maklashadi, atrof-muhitga katta yuk bermaydi. Mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta'minlaydi», deb hisoblaydi.

Ekoturizmnинг мөһијати ва мазмuni xaqida «Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi», «Xalqaro turizm jamiyati», «Yovvoyi tabiat umumjahon jamg'armasi» va boshqa kuplab xalqaro tashkilotlar Butunjahon turizm tashkilotining ekoturizm xaqidagi ta'rifini qabul qilishdi. Yuqorida ekoturizmnинг ob'ekti va predmeti to'g'risidagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ekologik turizm o'tgan asrning ohirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta-sekinlik bilan kirib keldi. Hozirgi kunga kelib, ekoturizm jahonda jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biriga aylandi.

O`zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi, nafaqat ma'naviy, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni tabiatimizga jalb etish, noyob xayvonot olamini saqlash va ko'paytirish muammolarni xal qilishga, balki shu bilan birga iqtisodiy masalalarni-mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy

sharoitini yaxshilash, ularni yangi ish joylari bilan ta'minlash hamda vatanimizning iqtisodiyotini o'sishiga katta xissa qo'shadi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarining o'rtasida, ekoturizmning rivojlanishi uchun qulay bo'lgan transport chorraxasida joylashganligi ham ekologik turizmni rivojlantirishda ko'plab salohiyatli imkoniyatlarni yaratadi.

Ekoturizm vatanimizning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida, nafaqat xorijiy sayyoohlarni Vatanimizning landshaft, xayvonot va nabobat dunyosiga boy va betakror tabiat bilan tanishtirish, xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini bog'lash, mamlakatlar va turli xalqdarning bir-birini atroflicha bilishga imkon beradi. SHu bilan birga O'zbekiston hududida yo'qolib ketish arafasida turgan noyob xayvonot va nabobat dunyosini saqlash va ko'paytirish maqsadlarida qo'riqxonalar tarkibida va atrofida jahon talablariga javob beriladigan milliy tabiiy bog'larni yaratish loyihamalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm ob'ektlarining moddiy-texnika bazasini yaratish uchun «Davlat ekoturizm dastur»larini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Dunyo hamjamiyatiga xizmat qiluvchi yuqoridagi xalqaro markazlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari har xil bo'lsada, ekoturizmning o'rnini belgilashdagi xulosalari deyarli bir xil. Chunki, ekoturizmni targ'ib qilayotgan tashkilotlarning ish tartibi, maqsadlari doimo biri-birini to'ldiradi. Dastlabki ikki xalqaro jamiyat tabiatdan turistik maqsadlarda foydalanish tarafdori, keyingi xalqaro tashkilot esa tabiatni muhofaza qilish bilan mashg'ul. Bu xalqaro tashkilotlar ekoturizmni bir xil ma'noda ta'riflar ekan ekoturizmda tabiat ham muhofaza qilinadi ham uning resurslaridan inson foydalanadi. Ekoturizmning xaqiqiy muxlislari o'zining yangi tabiat go'shalariga sayohati vaqtida «tabiat - jamiyat do'stligi, bardamligi» munosabatlarini ko'rishni xoxlaydi». Umumiy fikrlarni jamlab tahlil qilganimizda ekoturizm tabiat qo'ynida bo'lishdir. Ekoturizm bilan tabiatshunoslik va tabiatni muhofaza qilishning qo'shilib ketgani ekoturizmni rivojlantirishga ilmiy-amaliy me'yorlardan ko'proq e'tibor berilayotganligidadir deb tushunish tug'ri bo'ladi.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Singapur Respublikasiga Davlat tashrifi arafasida shu mamlakatning markaziy nashrlaridan biri muxbirining savollariga bergan javoblarida O`zbekistonda ekologik turizmning katta salohiyatga ega ekanligini ta`kidlagan holda, bu yo`nalishda olib borilayotgan ishlar xaqida quyidagilarni keltiradi - «**Go`zal geografik va tabiiy sharoitlar O`zbekiston Respublikasi xududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g`oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog`li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmularida qishki va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. Sayyohlikning yangi yo`nalishi - yirik qo`riqxonalar va bog`lar hududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmoqda.**» Demak, xulosa o`rnida ta`kidlash lozimki, mamlakatimizda ekologik turizmning nazariy va amaliy masalalari turli yo`nalishda va turli yondoshuvda tadqiq etilgan. Bu esa o`lkamizda ushbu yo`nalishini rivojlantirish uchun imkoniyatlар to`lig`icha etarli ekanligidan dalolat beradi.

Tabiat qanchalik turli-tuman bo`lsa, ekoturizm ham shunchalik turlichadir. Ularning farqi nafaqat iqtisodiy yoki tabiiy ko`rsatkichlarga, balki mahalliy urfodatlar va an`analar, ijtimoiy va siyosiy vaziyatga ham bevosita bog`liqdir. Hozirda turizm jadal ommalashib nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham o`zgarib bormoqda. XX asrning o`rtalariga kelib tabiiy turizm va uning turli ko`rinishlari rivojlangan bo`lsa, 70-yillarning boshlarida undan ekoturizm ajralib chiqa boshladi. Ekoturizm o`zining mazmun-mohiyatiga ko`ra insonlarning nafaqat ona tabiat qo`ynida dam olish, hordiq chiqarish yoki muayyan sog`lomlashtirish bilan shug`ullanishi, shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ishlarni bajarishga undaydi. Ma`lumotlarga ko`ra umumiyl turizm ichida ekoturizm 7 %dan 60 %gacha bo`lgan turistlarni qamrab oladi. Bunday ko`rsatkichlarga sabab, bir tomondan mualliflarning yetarli ma`lumotga ega bo`lmasligi yoki ekoturizm bilan boshqa turizmni aralashtirib yuborishlari bo`lsa, ikkinchi tomondan har bir davlatning ekoturistik imkoniyatlari turlicha ekanligidan kelib chiqadi. Hozirda turistik industriya ichida ekoturizmning mavqeyi oshib bormoqda. O`zbekiston uchun yangi fan sohasi – Ekologik turizm

jadal sur`atlarda rivojlanib bormoqda. U hozircha qaysi bir umume`tirof etilgan fan tizimiga kirishi kerakligi haqida yagona fikr yo`q. Lekin, Ekoturizm bevosita ekologiyaning uch asosiy predmeti— tabiat va jamiyat o`rtasidagi munosabatlarning hududiylik, davriylik hamda komplekslik xususiyatlarini tadqiq qilish nuqtayi nazaridan qaralishi shubhasizdir. Chunki sayyoohlarning ekologik yo`naltirilgan turizmi — tabiatni turlicha nomoyon bo`lgan hududlarga, ularning tabiat komponentlaridan (tuproq, suv, iqlim, o`simlik va hayvonot dunyosi, tog` jinslari, relyefi) kompleks foydalanilgan tarzda kamida 24 soatlik davrga cho`ziladigan harakatidir. Bu yerda ekologiyaning, xususan Tabiiy ekologiyaning uch elementi namoyon bo`lmoqda va shuning uchun ham uni ekologiyaning fanlar tizimida ko`rib chiqish mumkin.

Ekoturistik rayonlashtirish — ma`lum bir hududni uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan bo`limlarga ajratish. Ushbu tadqiqotda milliy ma`muriy birlik, ya`ni O`zbekiston Respublikasini, uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollariga qarab muayyan rayonlarga ajratish maqsad qilib olingan. Respublika amaliyotida hozircha ushbu yo`nalishdagi rayonlashtirish ishlari olib borilmagan. Lekin, ekoturistik rayonlashtirishda milliy davlat chegarasi yoki uning bir qismida olib borilgan tadqiqotlardan hamda amaliyot tajribalaridan atroficha foydalanishga harakat qilinadi.

Geografiyada, odatda ikki xil rayonlashtirish turi mavjud—regional va tipologik. Regional rayonlashtirish ekoturistik maqsadlarda juda qo`l kelishini to`rt holat bilan asoslash mumkin:

- O`zbekistonning muayyan tabiiy geografik kompleksini sayyoohlarga ko`rsatish bilan ikkinchi bir tabiiy geografik kompleksi ham tanishtirdik, deya olmaymiz, zero turistik jihatdan tabiat qaytarilmas va beo`xshashdir;
- Iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ko`pgina hollarda ekoturizmni tarixiy, diniy, ma`naviy-ma`rifiy turizm bilan birga olib borish aniq bir imkoniyatdan kelib chiqadi va uni hozircha inkor etib bo`lmaydi;

- Aholining ekologik ongi va madaniyatini har bir joyning o`zida amalga oshirish ko`proq ekologik samara beradi;
- Turizm ekologik xarakterda bo`lishi uchun albatta sayyohlikdan kelgan foydaning ma`lum bir qismini ekoturistik obyektdagi tabiatni muhofaza ishlariga qaratish lozim.

O`zbekiston hududini regional ekoturistik rayonlashtirishda uning hududiy yaxlitligi, kompleks yondashuv, genetik o`xshashlik va individuallik kabi qoidalarga amal qilishga harakat qilindi. Shu bilan birga yana quyidagi geoekologik prinsiplarga amal qilish lozim deb topildi:

- Geotizimlarning antropogen, tabiiy va tabiiy-texnogen o`zgaruvchanligi;
- Ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan birlashtirishda olib borish samaradorligi;
- Madaniylashtirilgan landshaftlarda agroekoturistik imkoniyatlarning yuqoriligi;
- Ekologik tadbirlarni olib borish imkoniyatining yaratilganligi va h.k.

Tabiiy geografik jihatdan O`zbekiston hududi 9 rayonga, iqtisodiy geografik nuqtayi nazardan esa 8 rayonga bo`linadi. Ekoturistik rayonlashtirishda qat`yan tabiiy yoki iqtisodiy geografik rayonlashtirishni asos qilib olingani yo`q. Chunki ekoturistik rayonlashtirish, garchand tabiatga obyekt sifatida qarasa-da, lekin sayyoohlari va ularning turistik harakatlari ijtimoiy xarakterga ega. Rayonlarni nomlashda bir paytning o`zida ham tabiiy geografik atamalardan, ham iqtisodiy-ijtimoiy geografik atamalardan atroflicha foydalanildi. Ekoturizmning maqsadi undan tushgan sarmoyani tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashga yo`naltirilgan moddiy va moliyaviy sarf-xarajatlardan iboratdir.

Ekoturistik rayonlashtirishning ilmiy asosi sifatida quyidagi geoekologik tasnifiy belgilar olindi:

- Har bir tabiiy geografik kompleks qaytarilmas ekoturistik imkoniyatlarga, ya`ni regionallik xususiyatlari ega;
- Ekoturistik obyekt chegarasi doim ham ma`muriy chegaraga to`g`ri kelavermaydi, ya`ni u tabiiy geografik kompleks ta`sir doirasida turadi va

shuning uchun ham undan kompleks foydalanish imkoniyati ochib berilishi lozim;

- Tabiatga uyushtirilgan sayyohlik mohiyatida tabiatni muhofaza qilish, turistlarning ekologik ongi va madaniyatini ko`tarish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash masalalari turishi lozim;
- Ekoturistik rayonlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning jozibadorligini namoyon etish uchun ekoturistik marshrutlarni tarixiy, tabiiy, ma`naviy-ma`rifiy, diniy kabi turistik sayohatlar bilan birga olib borish imkoniyatini hisobga olish;
- Ekoturistlarni milliy g`oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini yuzaga chiqarish va h.k.

Yuqorida aytib o`tilgan ilmiy prinsip va asoslarga binoan O`zbekiston hududi 14 ta ekoturistik rayonga ajratildi.

O`zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlarining chegarasi va ularning katta-kichikligi tabiiy geografik rayonlarga yaqinroq keladi, lekin aynan o`zi emas. Zero ekoturizmning obyekti tabiat va uning komplekslari, predmeti esa uning turistik imkoniyatlardir. Agar Yer kurrasi bo`yicha regional ekoturistik rayonlashtirishni amalga oshirilsa (afsuski, bunday tadqiqot hanuzgacha olib borilmagan) O`zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining markaziy qismini egallagan bo`lar edi. Unda ikki katta – G`arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog`li hamda Qizilqum-Orol-Ustyurt tekislik qismlarni ajratish mumkin bo`lar edi. Lekin ekoturizmning yuqorida aytib o`tilgan ilmiy asoslari mazkur rayonlashtirish darajasida buning imkoniyatini bermaydi. Unga misol qilib Farg`ona, Qashqadaryo va Surxondaryo ekoturistik rayonlarini olsa bo`ladi. Quyi taksonomik ekoturistik rayonlashtirish darajasida buning imkoniyati bor. Har bir ajratilgan rayon o`zining ekoturistik holati, imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari nuqtayi nazaridan ajralib turadi.

1.4.O`zbekistonda turizmni rivojlantirishning geografik asoslari va dinamikasi

Hozirgi kunda O`zbekistonda 1282 sayyohlik tashkiloti, jumladan 660 dan ortiq mehmonxona, sayyohlik bazasi va kempinglar, 600 dan ziyod sayyohlik kompaniyalari faoliyat ko`rsatmoqda. O`zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga etib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo`li davridagidek bir oy kerak emas. O`zbekiston bo`ylab katta shaxarlarga aviatsiya yordamida etib olish tez va qulay. Sayyohlar mamlakatning chiroyli manzaradan qulay va tez bo`lgan transport vositasi mashina yoki avtobuslardan foydalanadilar.

O`zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me`morchiligi bilan mashhur bo`lib qolmasdan, aktiv sayyohlik yo`nalishlariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu erda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg`unlikka kirisha olishiga inkoniyat beradi. O`zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini: tog`, vodiy, cho`l, daryo va ko`lni uchratish mumkin.

O`zbekistonning turfa xil maftunkor tabiatni G`arbiy Tyan-Shan tog`i bo`ylab piyoda yurish va tog`ning butun go`zalligini his qilishni imkoniyatini beradi. Ko`plab alpinistlar va chang`ichilar ekstrimal hissiyotlar qidirib balandligi 3309 metr bo`lgan Chimyon tog`lariga intilishadi. Otta yurish har qanday yoshdagi va har qanday temperamentdagi odamga zavq bag`ishlaydi va bu bilan yil bo`yi betakror iqlim sharoitlarida shug`illanish mumkin. Otta yurishning eng mashhur yo`nalishlaridan biri bu o`zining flora va faunasi bilan mashhur bo`lgan Ugam-Chotqol milliy bog`idir. Toshkentdan go`zal vodiy dengiz sathidan 1600 metr balandligda bo`lgan katta va kichik Chimyon tog`lari etagida joylashgan dam olish maskani ”Chimyon oromgohi” ga 90 kilometrlik masofani otta bosib o`tishlari mumkin. Bu yerda mahalliy otlar zotidan qurama qorabair va shuningdek axalteklar zotli otlarda sayr qilish mumkin.

Tog` havosining turli xil gullar va o`simgiliklarning isi bilan to`lgan musaffoligi, egarning g`ichrlashi, ot tiyoqlarining bir xilda taqillashi va ochiq osmon ostidagi hissiyotga to`la kechki nonushta bir umrga unutilmas taasurotlar

qoldiradi. Olis o‘tmishdagi Buyuk Ipak Yo‘lining harakatini his qilmoqchi bo‘lsangiz Qizilqum cho‘li bo‘ylab sayohatga taklif qilamiz. Qum uyimlari, quyoshning ayovsiz jazirasi, har-har yerdagi saksavullar va tuya qo‘ng‘irog‘ining ovozi va faqat cheksiz qumliklar. Bahorning boshida hayot baxsh etuvchi yomg‘irlar cho‘lni qirmizi lolalar va yashil maysalar gilami bilan qoplaydi lekin bu go‘zallik juda qisqa vaqt davom etadi. Sayyoohlар qulay avtomobillarini qoldirib tuyalarga minishadi va egzotik sayohatlarini boshlashadi. Bu unutilmas taasurotlar qoldiradi. Tasavvur qiling qondek qizil shafaq, yarqiragan qum uyimlari, o‘tovdagи tunlar, egzotik milliy toamlar, falklor tomoshalari va issiq bundan yoqimli yana nima bo‘lishi mumkin?. Birmuncha iliq ob-havo, butunlay shamolning yo‘qligi, 300 kun quyoshning porlab turishi chang‘i uchish mumkin bo‘lgan qulayliklarning, slalom, chang‘i poygalari va tezlik bilan uchish turlarini borligi chang‘i ishqibozlarini qishki dam olishlari uchun G‘arbiy Tyan-SHanda juda qulay imkoniyatlar mavjud.

So‘nggi yillarda “Chimyon-Chorvok-Beldirsoy” oromgohi yangi lekin tezlik bilan rivojlanib borayotgan sport turlari heli-ski va free ride ishqibozlari uchun mashxur joylardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun dengiz sathidan 1600-2400 m yuqorida joylashgan oktyabr oyidan mayga qadar qor bilan qoplanib turadigan Chimyon tog‘lar qiyaliklarida xalqaro tog‘ chang‘isi me’yorlarga mos keladigan tarzda sport ishqibozlari uchun qulayliklar yaratilgan. Ko‘plab «heli-skiing» ishqibozlari uchun dengiz sathidan 4000 m yuqorilikdan chang‘i uchish boshlanib vodiya tugaydi. U yerda kuniga 6 marotaba hali chang‘i uchilmagan qorda uchish imkoniyati bor. Mahalliy tez oqar daryolarda rafting bilan shug‘illanuvchi ishqibozlar O‘zbekistonni “Osiyoning SHveysariyasи” deb ham atashadi. CHotqol daryosi bo‘ylab rafting bilan shug‘ullanish bu sportning ishqibozlari uchun sevimli mashg‘ulot. Ular yo‘nalishning ko‘p kunliliqi, qiyinchiligi jixatidan 5-darajada turishi va shuningdek landshaft, to‘siqlarning ko‘pligiga qiziqishadi. Bu yo‘nalishda 50 dan kam bo‘limgan to‘siqlar ishqibozlarni kutib oladi. Ulardan eng qiyinlari sharsharalar, tez oquvchi qiyaliklar, sayoz toshli, quyumlar, qoyali oqimlardir. Qulay iqlim, toza havo, go‘zal manzara va tabiiy landshaft. Toshkent

ko‘li Golf klubi 108 hektarli 18 chuqurchadan, doimiy yashil maysalardan, ko‘plab daraxtlar va qiyaliklardan, ko‘l va sharsharlardan iborat. Bular o‘yinga yanada tabiiy to‘siqlar yaratib qiziqarli tus beradi. Go‘zal ko‘l, atrofidagi maydon 18 chuqurchalarni har biriga alohida xususiyat beradi. Bu yerda shuningdek shug‘ullanish maydonlari, tennis kortlari, suzish basseynlari va saunalar xizmat ko‘rsatib turibdi. O‘zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo‘lsada, u rivojlanishda ko‘pgina sohalardan oldinga chiqib oldi.

Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bizning diyor juda katta salohiyatga ega. Yigirma yil avval O‘zbekistonni hech kim istiqbolli turizm hududi sifatida bilmas edi. Mustaqillikka erishilgach davlat tomonidan turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqildi. 1992 yilning 27 iyulida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni bilan “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tashkil topdi. “O‘zbekturizm” ning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, Turizmni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasini faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:


✓ mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga Turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasidagi yagona davlat siyosati o‘tkazilishiga yo‘naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit kontseptsiyasi shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta’minlash;

✓ ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va xududiy dasturlari ishlab chiqarilishini muvofiqlashtirish va amalga oshirish monitoringi, turizm turlarining doirasini jadal rivojlantirish, xalqaro standartlariga muvofiq bo‘lgan turizm infraturizlmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, shuningdek xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarining kredit va grandlarni jalb etish;

✓ turizm faoliyati rivojlanishini muvofaqlashtirish, mintaqalarda yangi turizm yo‘nalishlari tashkil etilishini ta’minlash, ularni pasportlashtirish, turizm yo‘nalishlari va turizm ob’ektlari bo‘yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirish;

✓ turizm faoliyat sohasida birinchi navbatda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo‘yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, halqaro va davlatlararo standartlar va normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy etish; turizm faoliyati sub’ektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yuqori sifat darajasida tashkil etish, tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishiga ko‘maklashish. 1993 yildan buyon bizning davlatimiz “Xalqaro turizm tashkiloti” (UNWTO)ning a’zosi hisoblanadi. 2004 yildan boshlab Samarqandda – buyuk Ipak yo‘lining “yuragi”da UNWTO ning transkontinental magistralda turizmni koordinatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda. Hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mexmonhona infrastrukturasini yaxshilash, hamda turizmda normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina misol, 2021 yildan boshlab turizm maqsadida O‘zbekiston Respublikasiga 30 kundan ortiq bo‘limgan muddatga keluvchi Avstraliya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Niderlandiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Finlyandiya, Shveysariya va Yaponiya fuqarolari uchun viza tartibi bekor qilinadi. Bu xorijiy fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasiga tashrifi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va viza tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan imzolangan "O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmonida ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Belgiya Qirolligi, Indoneziya, XXR (turistlar guruhlari tarkibida), Malayziya, AQSH, Fransiya, Vietnam, Isroil, Polsha, Vengriya, Portugaliya va Chexiyaning 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘limgan muddatga O‘zbekiston Respublikasiga keluvchi fuqarolari uchun viza rejimi bekor qilinadi.


O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni^{*)}



^{*) Rasmiy deklaqasiyadan o'tganlar, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojhona qo'mitasi ma'lumotlariga asosan}

2016 yilda O'zbekiston Respublikasiga 2157,7 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan, bu 2000 yilga nisbatan 7 barobarga (1855,3 ming nafar) ko`paygan. O'zbekistondan chet elga chiqqan fuqarolar 5310,0 ming nafarni tashkil qilib, 2000 yilga nisbatan 12 barobarga (4867 ming nafar) ko`proqdir.


2016 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan shaxslarning safar maqsadlari bo'yicha taqsimoti, ming kishi



Davlat bojxona qo`mitasining ma`lumotlariga ko`ra 2016 yilda O`zbekiston Respublikasiga kirib kelgan shaxslarning 2,0 foizi (150,6 ming nafar) xizmat yuzasidan, 0,1 foizi (6,3 ming nafar) o`qish maqsadida, 0,7 foizi (53,1 ming nafar) ishslash maqsadida, 2,4 foizi (175,7 ming nafar) sayoxat qilish maqsadida, 22,6 foizi (1661,6 ming nafar) qarindoshlarini yo`qlash uchun, 0,4 foizi (27,3 ming nafar) davolanish maqsadida, 71,5 foizi (5255,3 ming nafar) doimiy yashash joyiga, 0,2 foizi (17,2 ming nafar) tijorat maqsadida kelgan.

3-rasm

2016 yilda O`zbekiston Respublikasidan ketgan O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimoti, ming kishi



2016 yilda O`zbekiston Respublikasidan ketgan respublika fuqarolarining 5,6 foizi (298,0 ming nafar) xizmat yuzasidan, 0,8 foizi (40,4 ming nafar) o`qish maqsadida, 27,3 foizi (1449,5 ming nafar) ishslash maqsadida, 5,5 foizi (294,6 ming nafar) sayoxat qilish maqsadida, 59,3 foizi (3146,6 ming nafar) qarindoshlarini yo`qlash maqsadida, 0,7 foizi (35,9 ming nafar) davolanish maqsadida, 0,2 foizi (12,6 ming nafar) doimiy yashash joyiga, 0,6 foizi (32,3 ming nafar) tijorat

maqsadida ketgan. 2016 yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 433 tani tashkil qilgan, 2012 yilga nisbatan 75 taga ko`p. Ular tomonidan xizmat ko`rsatilgan shaxslar soni 2012 yilda 511,6 ming nafarni tashkil qilgan bo`lsa, 2016 yilda 465,4 ming nafarga yetgan. 2016 yilda sayyohlik yo`llanmalarining 98,7 foizi (101,7 ming dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan. Jumladan Respublika hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 44,8 ming dona (44,0 foiz), MDH fuqarolariga 9,9 ming dona (9,8 foiz), boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga 31,8 ming dona (31,3 foiz) yo`llanma sotilgan. Shuningdek chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 15,2 ming dona yo`llanma sotilgan. 2016 yilda mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari soni 750 tani tashkil qildi va 2012 yilga nisbatan 44,0 foizga (229 ta) ko`paydi. Ulardagi o`rinlar soni 2012 yilga nisbatan 40,8 foizga (11 ming o`rin) ko`payib, 37,8 ming o`ringa yetdi. Mehmonxonalariga joylashgan shaxslar soni 2016 yilda 1513,1 ming kishini tashkil qilib, 2012 yilga nisbatan 27,2 foizga (323,5 ming nafar) ko`paydi. O`zbekiston Republikasi bo`yicha mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalarida joylar fondidan foydalanishkoeffisienti (o`rnlarning yil davomida band bo`lishi) 2016 yilda 26,1 foizni tashkil qilmoqda. Jumladan, eng yuqori ko`rsatkich Sirdaryo viloyatida 40,0 foiz, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida 36,5 foiz, Toshkent shahrida 35,7 foizni tashkil qilmoqda, shuningdek yil davomida joylarning band bo`lishi Xorazm viloyatida 14,1 foiz, Farg`ona viloyatida esa 14,6 foizni tashkil etgan.

1.5.Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishning geografik xususiyatlari

Nazariya–bu haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid ma'lum g'oyalar, qarashlar, gipotezalar, qonunlar va prinsiplarning muayyan tizimidir. U biror fan sohasiga oid bo'lib, u ma'lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo'ladi. Nazariya ilmiy bilishning yuqori shakli bo'lib, asosan amaliyotda olingan faktlarni izohlab, o'rganilayotgan

ob'ektning mohiyatini, ro'y beradigan hodisa va voqe' alarni oldindan bashoratlash vazifasini bajaradi. Nazariya ning mohiyatini bilganimizdan so'ng, mavzuning nazariy asoslarini ishlab chiqish oydinklashadi.

Mavzu bo'yicha talab shundan iboratki, turistik marshrutlar har qanday davlatda, tabiiy-madaniy mintaqada turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri ekanligini isbotlashdir. Turizmni rivojlantirish asoslari albatta birgina turistik marshrutlar ishlab chiqishdan iborat emas albatta. Turist uchun birinchi talab kelib dam olish, tunash joyini aniqlash hisoblanadi. Demak, turizmni rivojlantirishning birinchi navbatdagi asoslari mehmonxona xo'jaliklarini jahon andozalari talabiga etkazishni talab qiladi. Mehmonxonaga joylashgan turist albatta ovqatlanish masalalari, trans port xizmatlari, dam olish tizimi va ko'ngil ochar o'yinlar rejalarini bilan tanishadi. Keyinchi? keyin u o'zi qiziqib izlab kelgan turistik ob'ektga borishni taklif qiladi, aniqrog'i turfirma yoki mehmonxona xo'jaligi bu taklifni tayyorlaydi. Ana shu taklif turistik marshrut deyiladi. Umuman olganda turizm alohida davlatda jahon miqyosida rivojlanishi uchun birinchi navbatda dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan turistik resurslari bo'lishi talab qilinadi.

Dunyoviy ahamiyatga molik turizm resurslarini butun dunyo aholisi biladi, yoki bu resurs yoki resurslar haqida shov-shuvli axborotlarni eshitishgan. Masalan: dunyoning etti mo'jizalaridan biri piramidalarni olsak. Bu qadimiy mo'jiza obidani maktabning birinchi sinf o'quvchilari ham bilishadi, ko'rishga qiziqadi. Ana shu qiziqish o'sha maktab o'quvchisini ulg'ayganidan keyin piramidalarni ko'rishga chorlashi aniq.

Turistik marshrutlar turizmni rivojlantirishning asoslaridan hisob lanishi turistning yoki turistlarning o'z hohishlari bilan ma'lum bir davlatdagi turistik ob'ektga yoki ob'ektlarni ko'rishga kelganligi va uni ko'rib ketishda albatda turistik marshrutdan foydalanganligi tushuniladi. Turistlar foydalaniladigan marshrut esa oldindan ishlab chiqilgan, turistik marshrutning xizmatlar ko'rsatish dasturlari ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Har bir turistik ob'ektga turistlar kirishi ruxsat berilgandan keyin bu ob'ekt turizmga xizmat qila boshlaydi. Ba'zida va ko'p hollarda turizmda foydalanishga ruxsat berilgan turistik ob'ektlarga turistik

marshrutning yo‘qligi natijasida ushbu ob’ekt turizmda ishlamaydi. Masalan, vatanimizdagi Amir Temir g‘ori dunyoga mashhur g‘orlardan hisoblanadi. Bu g‘ordan ichki turizmda ham tashqi turizmda ham foydalanishga ruxsat berilgan. Lekin g‘orga etib borish va uning ichki qismini tomosha qilishning turistik marshrutlari ishlab chiqilmaganligidan hozirda bu g‘or turizmda ishlamaydi.

Turizmda jahonga tanilgan bu g‘orni ko‘rishga xalqaro miqyosda tarixchilar, geograflar va juda ko‘plab ishqibozlar bor. Bu g‘orga turistik marshrut ning yo‘qligining asosiy sababi turizmga befarqligimizdan bu g‘orga etib borish yo‘lini tozalaganimiz yo‘q. G‘orning yaqiniga transport bilan etib borish mumkin lekin yaqinlashgandan keyin g‘orga boradigan tog‘ yo‘li ochilmagan.

1-jadval

Marshrutda talab qilinadigan xizmatlarning xillari va sharoitlari

| Nº | Marshrutdagi xizmatlarning xillari | Xizmatlar ko‘rsatish sharoitlari |
|-----------|---|--|
| 1. | Transport xizmatlari | Transport vositalari (poezd, avtomobil, avtobus, samolyot, mahalliy transport turlari), yo‘lda yurish qoidalari, chegaralangan tezlik, transportda yurishdagi hayot havfsizligi, to‘xtashdagi talablar, transportdagi o‘rinlar, ko‘chma dam olish transport vositalari, transport va ekologik omillarni nazarda tutish |
| 2 | Joylashtirish xizmatlari | Joylashtirish vositalari (mehmonxona, turistlar bazasi, turistlar lageri, kemping, ijara uylari, ochiq ekspeditsiya ko‘rpalarida, havoda-uxlash palatkada)ning manzillari, darajalari, sharoitlari, xizmatlar ko‘rsatishning darajalari, ekologik omillarni nazarda tutish |
| 3 | Ovqatlantirish xizmatlari | Ovqatlantirish korxonalarining xillari (restoran, kafe, oshxona, choyxona, bar, manzillari, darajalari, xizmatlar qilish davri, vaqt (nonushta, tushlik, kechki ovqat), ovqatlantirish xillari (shved stoli, to‘liq pansion, yarim pansion, maxsus ovqatlar, alya kart, tablgot, palatka usuli, ekspeditsiya usuli,) ekologik omillarni nazarda tutish |
| 4 | Ekskursiya xizmatlari | Ekskursiyalarning soni, mavzulari, mazmuni o‘tkazish shakli (piyoda, transportda, o‘tkazish ketma-ketligi) ekskursiyada dam olish, ovqatlantirish masalalari, ekologik omillarni nazarda tutish |
| 5 | Turistik marshrutning hujjatlari | Marshrutning mavzusi, mazmuni, texnologiya xaritasi, marshrutdagi axborotlar, marshrut qatnashchilariga ko‘rsatmalar, marshrut sxemasi, marshrutni amalga oshirish uchun ruxsatnoma, xizmatlarni amalga oshiruvchilar, (haydovchi va uning yordamchisi, tarjimon, suv, choy beruvchilar, oshpazlar, yuk tashuvchilar, axborotchilar, boshlovchilar va boshq.) haqida |

Xuddi shunday holat mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlan- tirishdagi dolzARB muammolardan hisoblanadi. Aniqrog‘i shundan iboratki chet ellik turistlarning talablarini o‘rganganimizda har 100 turistdan 60-65 tasi vatanimizdagI tabiat qo‘riqxonalarini ko‘rish istagini bildirishgan. Lekin, hozirgacha tabiat qo‘riqxonalarimizdan turizmda foydalanishning huquqiy me’yorlari ishlab chiqilmagan. SHu sababli chet ellik turistlarning tabiat qo‘riqxonalarimizdan foydalanishdagi taklif va talablari rad qilinmoqda. O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, turistik firmalarimiz tabiat qo‘riqxonalariga turistik marshrutlar ishlab chiqmaydi va turizm bozoriga ham chiqarmaydi. Shu o‘rinda yana bir muhim masalani ham ta’kidlash lozimki, mamlakatimizdagI tabiat qo‘riqxonalariga va tabiat buyurtmaxonalariga vatanimizning fuqarolari ham qo‘yilmaydi. Shuning uchun ham aholining tabiat qo‘riqxonalarini bilishi ayniqsa, oliv ta’lim talabalarining qo‘riqxonalarimizni bilishi o‘ta darajalarda qoniqarsiz hisoblanadi. Bunday noxush holatlar albatta tuzatilishi lozim. Xulosa qilganimizda, har qanday turistik ob’ekt turizmda foydala nishga ruxsat berilgan va ushbu turistik ob’ektga turistik marshrutlar ishlab chiqilgandan keyin ichki va xalqaro turizmda ishlay boshlashi mumkin.

Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda axborotlanganlik tamoyilini qo‘llash marshrutni o‘ziga xos ravishda reklama qilish, turizm bozoriga kiritish ham hisoblanadi. Bu tamoyilda marshrut haqidagi barcha ma’lumotlar turist uchun muhayyo qilinishi kerak–broshyura, jurnal, buklet, gazeta, radio, televediniya. Turist marshrutda nimalarni ko‘radi, nimalar haqida ma’lumotlar eshitadi, qanday yuradi, qaysi kiyimlar kerak bo‘ladi, qanday transport vositalari taklif qilingan,qaysi xil ovqatlar ichimliklar tayyorlanadi,qanday dam oladi,ovqatlanish tartibi qanday tashkil qilinadi va hakozalarga–hammasiga javob bo‘lishi shart bo‘ladi. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillaridagi talablarni o‘rganib tahlil qilganimizda har bir tamoyilning marshrutda muhim o‘rni borligini anglaymiz. Bu tamoyillarni asos qilib olib ishlab chiqilgan marshrut o‘zida

marshrutning barcha talablarini majmuali ravishda mujassamlashtirgan bo‘ladi, ekomarshrutning reklamaligi ahamiyatini oshiradi.

Turistik marshrut birinchi navbatda turistik resurslarni o‘rganishni talab qiladi. Endi respublikamizdagi tabiiy resurslar salohiyatiga kelsak turizm resurslari zahirasi va turli–tumanligi bo‘yicha O‘zbekiston jahondagi eng boy davlatlar qatorida turadi. Mamlakatimizdagi faqatgina tarixiy, madaniy, arxeologik ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ektlar soni 4,0 mingdan oshadi. Ulardan 545 tasi me’moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san’at, 550 tasi arxeologik obidalardir. Turizm ob’ektlari: Xivada–310 ta ob’ekt, Buxoroda –221 ta ob’ekt, Toshkent shahrida 144 ta, Samarqandda 118 ta, Jizzax viloyati da 372 ta ob’ektlar bor. SHuningdek, 9 ta tabiiy qo‘riqxonalar, 10 ta buyurtmaxonala va 3 ta milliy parklar, betakror tabiatimiz, tabiiy go‘shalar, hayvonot va o‘simglik olami ekologik turizmni rivojlantirishda juda katta turistik resurslar hisoblanadi. Ushbu turistik ob’ektlarda turistik oqim faqatgina turistik maarshrutlar yaratilgandan keyingina ko‘payadi.

Qayd qilinganlardan xulosa shulkim, turizmni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri turistik resurslarga marshrutlar ishlab chiqish hisoblanadi. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishning turizm rivojiga ta’sirini nazariy jihatdan olib qaralganda yana bir imkoniyatga to‘xtalish juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu imkoniyatlar turizm ob’ektda va turizm marshruti davomida turistlarga xizmat qiladigan infratuzilmalarning hosil bo‘lishidir. Turistik resursga–ob’ektga turistlar kelish boshlangandan mahalliy aholida turistlarga xizmatlar ko‘rsatish istagi paydo bo‘ladi, turistlarning nimalarga qiziqishini, ularning ehtiyojlarini o‘rgana boshlaydi. SHu tariqa turistik ob’ektda va turistik marshrut bo‘ylab o‘ziga xos bo‘lgan kichik–kichik turistik infratuzilmalar paydo bo‘ladi.

YAqin yillargacha hazrati Dovud g‘ori umuman e’tibordan chetda edi. Qizil imperiya vaqtida ziyoratchilar yashirin ziyoratga, sanoqli holda kelib -ketishar edi. Mustaqillik yillardan boshlab din erkinligidan so‘ng hozirda eng gavjum joylar-diniy ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Bunday ziyorat gohlarga sobiq ittifoqning barcha sobiq respublikalaridan ziyoratchilar kelib ketishadi. Hazrati Dovud g‘origa kelib ketayotgan turistlarga xizmatlar qilish bilan g‘or atrofidagi qishloq ahli to‘liq

shug‘ullanishadi. Tuya, ot, eshakda sayr, oziq-ovqatlar, ichimlik suvi bilan ta’minlash va xizmatlar ko‘rsatish orqali mahalliy aholining ko‘p qismi yaxshi, engil daromad topmoqdalar. G‘or atrofida o‘ziga xos bo‘lgan turizm infratuzilmalari o‘zaro raqobat nati jasida tobora kengayib, mukammallahib bormoqda.

Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning turizm iqtisodiyotidagi o‘rnini belgilaganimizda yoki belgilanishida eng muhimi shundan iboratki, birinchi navbatda ish o‘rinlari hosil bo‘ladi. Ish o‘rinlarini tashkil qilish esa jahon mamlakatlaridagi eng og‘ir masalalardan hisoblanishi ma’lum muammodir. Turizmdagi tadbirdorlar yoki mutaxassislar ko‘p hollarda ichki turizm ob’ektlariga marshrutlar yo‘qligidan ushbu turistik ob’ektga turistlarni taklif qilmaydilar va bu turistik ob’ektda turistlarga xizmatlar ko‘rsatuvchi infratuzilmalarning yo‘qligini sabab qilib ko‘rsata dilar. YUqorida qayd qilingan payg‘ambar Dovud g‘oridagi infratuzilmalarni davlat tashkilotlari qurib bergen emas. Bu muqaddas g‘orga turistlar qo‘yilishi ruxsati berilganidan boshlab atrof mahalliy aholi turistik infratuzilmalarni o‘zları yaratishdi. Ta’kidlanganidek, mahalliy aholining juda ko‘pchiligi turistlarga xizmatlar ko‘rsatishda kutilmagan, yangi ish o‘rinlarini topishdi. Bu g‘orga ichki va xalqaro turistlarning ko‘payishi natijasida xizmat qiluvchilarning o‘zaro raqobati mavjud infratuzil malarning tobora yaxshilanib borayotganligi kuzatilmoqda. Bundan xulosa shulkim, mamlakatimizdagи barcha turistik resurslarga, turistik ob’ektlarga turistik marshrut ishlab chiqish va bu turistik marshrutlarni ichki va tashqi turizm bozoriga chiqarish turizmnı rivojlantirishning eng muhim masalasi hisoblanadi.

Turistik marshrutlarning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish birinchidan, mamlakatdagi turistik resurslarning dunyo mamlakatlaridagi aholining qaydarajalarda bilishliklari, ikkinchidan, turizm resurslari ning turlitumanligi, uchinchidan, turistik resurslar haqida turmahsulot ishlab chiqilganligi va to‘rtinchidan, turizm statistikasi ma’lumotlarini doimiy kuzatib borishi va turistik oqimni yaxshi bilishi va beshinchidan, turmahsulotlarning zamonaviy turizm reklamalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq hisoblanadi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shahalarimizni dunyoning o‘qimishli aholisi yaxshi biladi va hozirgi ichki va xalqaro turistik oqimlar ham asosan ushbu shaharlarga to‘g‘ri kelmoqda. Bu turistik oqimlarning pasayishi yoki kuchayishi turizm infratuzilmalarini va xizmatlarini hozirgi zamon turizmi talablarida bajarib borishni susaytirishimiz yoki kuchaytirishi mizga bog‘liq. Har holda hozir O‘zbekistonda madaniy-tarixiy turizmi bilan diniy -ziyorat turizmi rivojlanib bormoqda. Istiqbolda ham bu turizm turlarining mavqe‘i pasaymaydi. Mutaxassislarning fikricha kelgusi istiqbolda O‘zbekistonda ekologik turizm va diniy-ziyorat turizmlari kuchli rivojla nadi. Bizning bashoratlarimiz ham xuddi shunday. Lekin, turizmdagi har-xil fikrlar, xulosalar va bashoratlar ham aniq hisob-kitoblarga asoslanishni talab qiladi. Eng muhimi, ertangi istiqbolda halqaro va ichki turistlarni jalg qiluvchi turistik resurslarning va imkoniyatlarning borligi yoki yo‘qligini yaxshi bilish kerak va yangi ishlanadigan turistik marshrutlar qay darajalarda xaridorbop bo‘lishini ham oldindan ko‘ra bilish lozim.

Mamlakatimizda turizmning hozirgacha bo‘lgan davridagi rivojlanishi shidan ma’lum bo‘lmoqdaki, O‘zbekistonning turizm salohiyatidan na ichki turizmda na xalqaro turizmda to‘liq foydalana olmayapmiz. Mamlakatimiz mustaqilligidan keyin din-ziyorat erkinligidan keyin xalqimizning diniy -ziyoratgoh manzilu-makonlarni obod qilishi, muhaddas ziyyaratgohlarga erkin borib kelishi to‘liq ta’minlandi. Xalqimizdagi bu ko‘tarinkilikdan turizmdagi mutaxassislar, turizmdagi tadbirkorlar va turistik firmalar tezkorlik bilan foydalanishlari lozim edi. Lekin bunday holat to‘lig‘icha yuz bermadi.

Buning birinchi sabablaridan biri turistik firmalar va turistik tashkilotlar Respublikamizdagi viloyatlarning barcha tumanlaridagi ziyyaratgohlarning ro‘yxatini olishi, ularning mazillarini aniqlashi, ta’rif –tavsiflari bilan ziyyarat xususiyatlarini mukammal yozib chiqishi kerak edi. Bizdagi ma’lumotlar va ko‘p joylarda erkin so‘rovlар o‘tkazishning natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, bir viloyatda yashayotgan aholining 60-70%lari boshqa, hattoki qo‘shti viloyatlardagi ziyyaratgohlarni yaxshi bilmaydi, 50-55% i ziyyaratgohlar haqida eshitishgan lekin aniq manzilini bilmaydi, 12-17% i izlab borsa bo‘ladi javobini berishdi. Shuning

uchun ham fikrimizcha, istiqbolda ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham diniy-ziyorat turizmini rivojlantirishning juda katta salohiyatlari borligini hisobga olib ichki va xalqaro turizm bozoriga ishlab chiqiladigan turistik marshrutlar istiqbolli hisoblanadi.

Turizmdagi turlarning kelib chiqishi jihatidan ziyorat turizm eng qadimiy turlardan hisoblanadi. Chunki, dastlab inson o‘zida paydo bo‘lgan e’tiqod hissi nuqtai-nazaridan o‘z dinidagi barkamol insonlar, avliyo va shayxlar, keyinchalik ularning qabrlariga sig‘indi, bu harakatlari unga hotirjamlik, osoyishtalik keltirishni sezdi. Bunday ziyoratlar ko‘chuvchan, harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lganligidan turizmda ziyorat turizmi nomini oldi. Ziyorat turizmining rivojlanishini har bir davlatda ikki yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Birinchi yo‘nalish-ichki ziyorat turizmini tashkil qiladi. Bu yo‘nalishda bir davlat ichidagi xalqlar, elatlar, millatlar o‘z davlati hududlaridagi ziyoratgoh maskanlarni yaxshi bilishadi va o‘z dinidagi mashhur avliyolar, shayxlarga yoki muqaddas joylarga borib ziyoratni amalga oshirishadi. Ziyorat turizmdagi ikkinchi yo‘nalishni bir mamlakatdagi ziyoratchilarning boshqa bir davlatdagi o‘z dini rahnomalari, avliyolarining qabrlari yoki boshqa muqaddas joylarga ziyorat, sig‘inishi uchun qilgan safarlari tushuniladi.

Ziyoratgoh manzillaridan ichki turizmda foydalanishda respublikamiz hududlaridagi barcha ziyoratgohlardan foydalaniladi. Bunda dindagi e’tiqodlarga qarab qaysi ziyoratgohlarga qancha turist kelganligini aniqlash, ularga xizmatlar ko‘rsatishni o‘rganish orqali istiqboldagi ishlarni rejalash tirish mumkin.

Ziyorat turizmdan xalqaro maqsadlarda foydalanilganda mamlakat imizdagi diniy ziyoratgohlardan qaysi birlari yoki qanchasi xalqaro miqyosda tanish yoki ma’lumligi aniqlanadi. Masalan, islom dinidagi avliyolar yoki muqaddas joylar mahalliy ahamiyatga ega bo‘lsa bu ziyoratgohni xalqaro miqyosda reklama qilishdan biron-bir natija chiqmaydi. Masalan, viloyatning ma’lum bir tumanidagi diniy ziyoratgoh o‘z ovozasi, mavqeい bo‘yicha faqat tumandagi ziyoratchilarni jalb qilaoladi. Ziyoratgohlardan foydalanishdagi yana bir yo‘nalish har bir mamlakatda boshqa dindagi avliyolarning, payg‘ambarlarning ziyoratgohlari borligini va bu

ziyoratgohlarni xalqlarning qanchalik darajada bilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir davlatda bunday joylardan xalqaro turizmda foydalanish mamlakat iqtisodiyotiga katta daromad keltiradi. Bunda eng birinchi navbatda ziyoratgohlarni turistlar tashrifiga tayyorlash, atrofida xizmatlar infratuzilmalarini tashkil qilish va so‘ngra ichki va xalqoro turizm bozori uchun reklama, axborot manbalarini tarqatish lozim bo‘ladi. Masalan, Samarqand viloyatidagi “Hazrati Dovud payg‘ambar” g‘ori va “Doniyor ota” ziyoratgohlari ana shunday imkoniyatlarga ega bo‘lgan, ichki va xalqaro turizm oqimini tashkil qilishga asos bo‘ladigan muqaddas ziyoratgohlardan hisoblanadi. Hazrati Doniyor otani boshqa millatlar, asosan ruslar, rus tilida gaplashuvchilar Otets Daniel, prorok Daniel deb atashadi va yuqori darajada bu ulug‘ inson ta’limoti va qabrini e’zozlashadi. SHu o‘rinda qayd qilish lozimki, Doniyor ota qabrini islom dinidagilar, xiristianlar va katoliklar, iudizm e’tiqodidagi dinlar yoki dunyoning asosiy 3 dini e’tiqodidagilar ham ziyorat qilishadi. Ana shunday ulug‘ avliyolarning qabrlari vatanimiz tuprog‘ida ekanligining o‘zi ham “O‘zbekiston ga ollohning nazari tushgan” degan hikmatli gapning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Xuddi shunday ziyoratgoh misolida Dovud payg‘ambar g‘orini keltirish mumkin. Dovud payg‘ambarni chet elliklar prorok David deb atashadi. Bu payg‘ambarni Markaziy Osiyo xalqlari temirchilikning piri deb bilishadi. Bu g‘orda ziyoratda bo‘lganlar sobiq sovetlar respublikalaridan ayniqsa, Boltiq bo‘yi davlatlaridan, Ukraina, Belorussiya va Rossiya davlatlaridan ko‘plab turistlar kelib-ketishayotganliklarini, ular ham Hazrati Dovud payg‘ambarni o‘zlarining temirchiliги piri deb bilishlarini hikoya qilishadi. Shuning uchun ham bunday muqaddas ziyoratgohlarni dunyo miqyosida reklama qilish respublikamizda xalqaro turizmni rivojlantirishda kutilgan natijalarni beradi.

Mahalliy aholida aksariyat hollarda o‘ziga hos maqsad bo‘ladi. Bu maqsad oilasining tinchligi yoki bolalarni baxti–saodati uchun o‘z ota–bobolari sig‘ingan avliyolar qabrini ziyorat qilishga intilish. Yana bir maqsad shunga qaratiladiki, oilada ishning yurishib ketishi yoki hosilning to‘kis bo‘lishi yoki safarning eson–omon bo‘lishi uchun aziz–avliyolarning qabrlarini ziyorat qilishni ma’lum bir

maqsad asosida rejalashtiriladi. Halqimizning ziyyaratgohlarga tashrif buyurishi g‘oyatda turli-tumandir. Bu xolatda ziyyaratga borishni maqsad qilish juda ko‘p sabablarga bo‘ladi. Bazi bir oilalar farzandli bo‘lish uchun, bazilari qurbanlik qilish uchun, bazilari esa oiladagi ins-jinslarni haydash uchun, bazilari omadli bo‘lish, ishlari yurishib ketishi uchun uzoq–uzoqlardagi muqaddas joylarga safarga chiqishadi. Ziyyaratgohlarga sig‘inishga, ziyyaratga borishdan hamma halqlarda ham faqat yaxshi niyatlar, yaxshi istaklar, yaxshi rejalar asosida yuzaga keladi. Insonlar ning bu istaklari, maqsadlarining bajarilishida diniy ziyyaratgohlarning ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. CHunki, ziyyaratga borib kelgan xar qanday kishida o‘ziga xos hotirjamlik, tinchlik, ishonch hosil bo‘lishi qadimdan ma’lum jarayondir. Ziyyaratgohlardan turizmda foydalanishda birinchi navbatda ichki turizm maqsadlarini belgilab olish zarur bo‘ladi. Buning uchun dastlab diniy ziyyaratgoh maskanlarini to‘liq ro‘yxatdan o‘tkazish, ta’rif va tavsiyalarni yozish, ushbu maskanlarning ziyyaratga chorlovchi xususiyatlarini yaxshi o‘rganish va ziyyaratgoh atrofida xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmalarini yaratish talab qilinadi. Respublikamizda hozirga kelib ma’lum bo‘lmoqdaki, islam dini ta’limotining dunyoga mashhur bo‘lgan vakillarining juda ko‘pchiligi vatandoshlarimiz hisoblanadi va ularning mangulik bilan bog‘liq ishlari, faoliyatları va qabrlari joylashgan ziyyaratgoh joylarni halqimizning bilish darajasi o‘rganilmagan.

Jahondagi barcha davlatlarida o‘zlarining ziyyarat turizmi bor. CHunki har bir davlatlarda yashayotgan halqlarning o‘z diniy yo‘nalishlari va bu yo‘nalishlarda mashhur bo‘lgan dindorlar va avliyolar yashab o‘tgan. Bu kishilar ning faoliyati boshqa ellarda, halqlarda mashhur, tanish bo‘lmasligidan aynan shu davlatda ziyyarat turizm halqaro miqyosda rivojlanmasligi va ziyyarat turizm bir davlat ichidagina rivojlanishi mumkin.

Ikkinchidan, ziyyarat turizmida mashhur avliyolarning qabrlari joylash gan erlar, maskanlar haqida dunyo bo‘yicha etarli axborotlarning tarqatil maganligi, ishonchli ma’lumotlarning reklama qilinmaganligi ham ushbu maskanlarda halqaro turistlarni jalb qila olmaydi. SHuning uchun ham ziyyaratgoh joylardan ichki

turizmda ham, halqaro turizmda ham foydalanish masalalarini, muammolarini o‘rganish turizmni rivojlantirishda juda dozarb masala hisoblanadi.

1.6.Turizmni rivojlantirishda ekoturistik marshrutlarini yaratishning ahamiyati

Fikrimizcha mahalliy mehnat resurslarini ish o‘rnlari bilan ta’min lashda turistik ob’ektga turistik marshrutlar ishlab chiqish juda katta ahamiyatga ega. Hozircha diniy ziyoratgoh turistik resurslardan turizm maqsadlarida foydalanish tobora rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish asosan shaharlar va tuman markazlaridagi diniy rahnomalar dafn qilingan joylarga mahalliy va xalqaro turistlarning tashrifi kuchayishi asosida yuz bermoqda.

Navbatdagi vazifa mahalliy tumanlardagi mashhur diniy rahnomalar, avliyolar, xo‘jarlar va sayidlar daxmalari, maqbaralari va xaziralariga turistik marshrutlar ishlab chiqishni kuchaytirish zarur. Tumanlardagi bunday makonlarda turistik xizmatlarning yo‘qligi yoki qoniqarsiz holatda ekanligidan mahalliy turizmni rivojlantirish dasturlari juda sust bajarilmoqda. Vaholanki,mahalliy aholini ish bilan ta’minlashda turistik marshrutlar yaratish, turizmni rivojlantirishda iqtisodiy jihatdan eng istiqbolli usullardan hisoblanadi.

Turistik marshrutlar yaratishning yana bir muhim tomoni shundaki, turistik marshrutda turistik oqimning kuchayishi ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham ellar, xalqlar va millatlar o‘rtasida tanishuv, do‘stlashuv, o‘zaro hamkorlik rishtalari hosil bo‘ladi. Hozircha bunday do‘stona aloqalar asosan shaharlar aholisi bilan chet elliklar o‘rtasida yuz bermoqda. Bu holatning aso siy sabablari chet ellik turistlarni hanuzgacha shaharlarimizdan tashqaridagi tabiat mintaqalariga, landshaftlariga, qo‘riqxonalari yoki suv havzalariga jalb qilaolmaganimizdadir.

Hozirgi ma’lumotlardan ma’lumki, O‘zbekistonning 70 % hududlarini cho‘l va adir mintaqasi egallaydi. Bu mintaqada hozircha 55 ta turistik resurs ro‘yxatga olindi. Bu resurslar 14 ta alohida-alohida mavzularda ekanligi, bepoyon cho‘l tabiat, cho‘l xalqi hayoti, cho‘lning o‘simgiliklar olami va hayvonat dunyosidan

mahalliy turizm va xalqaro turizmni rivojlantir ishda foydalansak ishonch komilki, albatta dastlab turistik marshrutlar ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi.

YUqorida qayd qilganimizdek, bu turistik marshrutlar bo‘ylab albatta xizmatlar ko‘rsatish joylari, texnik servis xizmati, palatkali mavsumiy turistik lagerlar, ekzotik ekskursiyalar (tuyalarda, otlarda, eshaklarda, aravalarda) tashkil qilinadi. Milliy ovqatlanish shoxobchalari vujudga keladi. Tabiiyki, bu xizmatlarning barchasini mahalliy aholi bajaradi. Ikkinchidan, cho‘l hududlari shaharlar va tumanlar markazidan uzoq bo‘lganligi uchun turistlar albatta tunab qoladilar. Tunash uchun cho‘l xalqining mashhur “qora uy”lari (kigizdan) taklif qilinsa har qanday turist (hatto mahalliy turistlar ham) o‘zining qiziqishi (balkim, birinchi marotaba tunayotgandir) tufayli o‘sha joyda kamida 1-2 kun qolib ketadi.

Xalqaro turist ham mahalliy turist ham ana shu 1-2 kunlik muddatda albatta mahalliy aholi vakillari bilan tanishishadi, do‘stlashadi. Xalqimizning mehmondo‘sligi, qiziqish va hokazo insoniylik xislatlari turistlarni jalb qiladi, bordi—keldi, mamlakatlar o‘rtasida axborotlar almashish va hokazo bog‘lanishlar yuz berishi aniq. Bunday do‘stona munosabat larning vujudga kelishi, xalqlar haqidagi bilim, davlatlar haqida ma’lumot lar albatta insonda fikrning kengayishi, olamga boshqacha nazar solish hissiyotlarini hosil qiladi. Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizdagи barcha turistik resurslarga turistik marshrutlarni ishlab chiqishni boshlash turizmni rivojlantirishda eng muhim iqtisodiy omil bo‘lar ekan. Turistik resurslarga turistik marshrutlar ishlab chiqishning nazariy asoslarini o‘rganish turizm resurslaridan foydalanishning davlat dasturini ham yaratishni kun tartibiga qo‘yadi.

Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning mamlakat hayotidagi o‘rni, ahamiyatini belgilashda juda katta imkoniyatlar borligini hisobga olishi miznitalab qilmoqda. Hozirgi turizm rivojida turizm xizmatlari infratuzilmalarini yaratish, mukammallashtirish masalalari ham dolzarb muammolar ro‘yxatida turibdi.

Ko‘p holllarda turizm tashkilotlari, turistik firmalar hattoki turizmni boshqarish tashkilotlari ham turistik resurslar, turistik ob’ektlarda dastlab turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarini yaratishni birinchi muammolar

qatoriga qo‘yadilar. Bu holatni ham albatda to‘g‘ri deb qabul qilish kerak. Lekin moliyaviy muammolarning kelib chiqishi natijasida qurilishga rejalashtirilgan infratuzilmalarni yaratish ancha muddatlarga kechikib ketadi. Hali turizm maqsadlarida foydalanilmagan, lekin turistik resursdan bu turistik ob’ektlarga hech ikkilanmasdan turistik marshrutlarni ishlab chiqish va turizm bozoriga chiqarish zarur. Halqaro yoki ichki turizm maqsadlarida foydalanishning dolzarbligi yuzaga chiqqan holatlarda bunday turistik ob’ektlarga turistik marshrutlar orqali turistlarning tashrif buyurishi natijasida turistik ob’ekt atrofidagi mahalliy aholida kutilmagan holatlarda turizm infratuzilmalarini yaratish tadbirkorligi o‘zi-o‘zidan boshlanib ketadi. CHunki turistlarga mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlarini sotish, mahalliy oziq-ovqatlarni sotish, hattoki, joylash tirish xizmatlarini sotish ehtiyojlari kelib chiqadi. Turistik marshrutlarni tarixiy va diniy ziyoratgoh turizmi jihatidan ta’riflashda bu ikkala turning biri-biri bilan bog‘langanligi hisobga olinadi. Aslini olganda ham bu ikkala turni ajratib bo‘lmaydi. Bu holat ko‘p hollarda turistning talabi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aniqrog‘i xalqaro turistlar biror joydagi diniy ziyoratgohlar, diniy rahnomalar daxmalarini ziyorat qilganda bu rahnama faoliyati, tarixi bilan ham qiziqishadi. Ba’zi turistik marshrutlarda nomoz amallarini bajarish sharoitlarini talab qilib qolishi mumkin. Bunday hollarda marshrutda qatnashuvchi gid-tarjimon tarixiy jihatdan kuchli bilimga ega va talab qilingan sharoitlarni tezkor usulda yaratish tajribalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Mahalliy turizm sayyoohlari esa aksariyat hollarda faqat ziyoratni ijro etishib uning tarixi bilan qiziq maydi.

Tarixiy va diniy turizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi tayyorlangan buklet, marshrut dasturida diniy ziyoratgoh maskani va bu maskanning yuzaga kelishidagi tarixiy davrlar haqida juda qiziqarli, qisqa-qisqa ma’lumotlar albatta turistni qiziqtiradi. E’tibor qilsak, har qanday turistik resursning o‘ziga xos tarixi mavjud bo‘ladi. Turizmdagi barcha turlarga turistik marshrutlar ishlab chiqqanda turoperator bu savolga albatta marshrutda javob topishi lozim bo‘ladi. SHuning uchun ham turistik marshrutlar mavzusini nomlash, belgilash asosan turistik resurs-makon nomi bilan ataladi. Masalan, Registon ansamblı, SHohizinda yoki

Amir Temur daxmasiga ishlab chiqilgan marshrutlar ana shu tarixiy obidalar nomi bilan atalishi hammaga ayon albatta. Bu marshrutlarda ba’zi turistlar (asosan islom dinidagi) birinchi navbatda ziyorat bilan shug‘ullanishadi va qur’on oyatlaridan duolar o‘qishadi. Keyinchalik esa bu ziyoragoh tarixi bilan qiziqishi mumkin. Ikkinchi xil turistlar (islom diniga e’tiqod qilmagan) dastlab ushbu turistik makonni tomosha qilishadi va keyin uning tarixi bilan qiziqishadi.

Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, turistik marshrut larning deyarli barchasi turning mavzulari balan nomlanadi tarixiy obidalar, ziyoratgoh joylar hamisha, deyarli bir mavzuli turistik marshrutlarning mazmunini tashkil qiladi.

Turistik marshrutlarni rekreatsiya va ekologik turizm talablari asosida ishlab chiqilganda ham bu ikkala turning biri-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini hisobga olishi kerak. Ekologik turizm resurslari bu-tabiatning betakror ko‘rinishlari, biologik xilma-xillik, biologik resurs lar, tabiiy mintqalarning o‘ziga xos iqlim sharoitlariga qiziqish hisoblani shi turizm sohasidagi mutxassisliklarga ham, ekoturizmga qiziquvchilarga ham ma’lum turistik tur hisoblanadi.

Rekreatsiya turizmi (rekreatsiya-dam olish,tiklanish) esa tabiatning o‘ziga xos mikroiqlimiga ega bo‘lgan so‘lim go‘shalarida (buloqlar, shifobaxsh suvli buloqlar, dorivor xususiyati bo‘lgan daraxtzorlar, soylar, daralar va hokazo) turistlarning dam olishi hisoblanadi. Rekreatsion turizm va ekologik turizm alohida-alohida turlar hisoblanadi. Lekin e’tibor berish lozimki, rekreatsion turizm resurslarining asosiy qismi tabiat landshaftlarida joylashgan (tog‘larda, tabiat mintaqalarida, suv havzalarida, daryolarning sohillarida va hakozo.).

Ekskursiya turizmi marshrutlarini ishlab chiqishda albatta ekologik turizm marshrutlaridagi talablar qo‘yiladi. Aniqrog‘i, rekreatsiya turizmi marshrutlarini ekologik turizm marshrutlari deb atash ham to‘g‘ri bo‘ladi. CHunki, dam olish maskaniga turist faqatgina tabiat resurslari orqali etib boradi va dam olish vaqtida ham albatta atrof tabiiy muhitni ko‘rish uchun kunlik ekskursiyalarga chiqadi.

Qayd qilinganlarni hisobga olsak, turistik resursga turizm marshrut larini ishlab chiqishda turistik resursdan majmuali foydalanish tomon larini ham hisobga olish to‘g‘ri yondashish bo‘ladi. Eng muhimi shundaki, turistik marshrut dasturi

marshrut atrofidagi barcha qiziqtiruvchi ob'ekt larni qamrab olishi lozim. Turistik marshrutda turistni qiziqtiruvchi, uni to'xtatib tomosha qildiruvchi resurslari qanchalik ko'p bo'lsa ushbu marshrutga talab ham ko'payadi, turistik oqim hajmi oshadi. Turistik marshrutda ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish turning jizabador, qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Har qanday turistik marshrutda ekskursiyalarni tashkil qilish turoperatorning tadbirkorligiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi vaqtida shaharlardagi diqqatga sazovar joylarni ko'rishga va diniy ziyyaratgoh maskanlarga kelib-ketuvchi turistlarni ekskursiyalarga taklif qilish deyarli yo'q hisoblanadi. CHunki bunday joylarga ham puxta tuzilgan turistik marshrutlar ishlab chiqilmagan. Eng afsuslanarli joyi shundaki, hozirgacha turistlarga turist yurmoqchi va ko'rmoqchi bo'lgan marshrut unga og'zaki holda taklif qilinmoqda. SHaharlardagi xotira bog'lari, o'lkashunoslik, xalqlar tarixi va hayvonot olami bilan bog'liq muzeylar, xalqimizning hunarmandchiligi ustaxonalariga mahalliy turizm da ham, xalqaro turizmda ham qiziqarli ekskursiyalar uyushtirishning katta imkoniyatlari deyarli barcha shaharlarimizda mavjud. SHahar ichidagi turistik marshrutda albatta ekskursiya marshrutlari qo'yilishi lozim. Buning uchun shaharlardagi ekskursiya ob'ektlari to'liq ro'yxatga olinib undagi xizmatlarning turlari va baholari aniqlanishi lozim. Endi shaharlardan chiqish va uzoq masofalarga (ekoturizm, arxeologik yoki ovchilik turizmi kabilar) boriladigan turistik marshrutlarda albatta yo'l-yo'lakay ko'rib o'tiladigan ekskursiya marshrutlari bo'lishi marshrutni qiziquvchanligi, turlitumanligini kuchaytiradi.

CHunki, uzoq masofaga avtotransportda to'xtovsiz yurish turistlarni toliqtiradi (ayniqsa tabiiy relefi qariyib bir xil bo'lgan cho'l hududlaridan yurilganda). Uzoq masofalarga turistik marshrut ishlab chiqilganda dastlab yo'l va yo'l atrofida bo'lgan diqqatga sazovor joylar, tarixiy obidalar, buloqlar yoki qadimiy daraxtlar, soylar va boshqa to'xtash mumkin bo'lgan ob'ektlar haqida ma'lumotlar to'planadi. Turistik marshrut tuzuvchi bu ob'ektlarning eng jozibador, qiziqtiruvchilariga ekskursiyalar uyushtirishini turistik marshrutga kiritishi turistning yo'lda zerikishining oldini oladi.

II BOB. NUROTA TOG‘ – O‘RMON DAVLAT TABIIY QO‘RIQXONASIDAN EKROTURIZMDA FOYDALANISHDAGI IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

2.1. Nurota tog‘ – o‘rmon davlat tabiat qo‘riqxonasing tabiiy –geografik tavsifi

Tabiat qo‘riqxonasi-maydoni hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan qattiq rejimda qo‘riqlanadi.O‘ziga xos, betakror tabiat landshaftlari, noyob, yo‘qolib borayotgan hayvonot turlarini saqlab qolish va ko‘paytirish maqsadida davlat tomonidan tashkil qilinadi.Qo‘riqxonalarda inson faoliyati taqiqlanadi. Faqat ilmiy – tadqiqot ishlarini o‘tkazishga ruxsat berilgan. O‘zbekistonning davlat qo‘riqxonalari–muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning eng qat’iy tartibli turi bo‘lib, muayyan o‘simlik,hayvon turlari va ekotizimlarni himoyalash uchun tashkil qilingan, doimiy amal qiladigan muhofaza etiladigan zonalar hisoblanadi. Qo‘riqxonalarda har qanday xo‘jalik faoliyati taqiqlangan(nazorat etiladigan ilmiy tadqiqotlar bundan mustasno).

Qo‘riqxonalar Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi(IUCN) muhofaza etiladigan zonalari tasnifining I toifasiga to‘g‘ri keladi. Respublika qo‘riqxonalarida «Qizil kitob»ga kirgan ko‘plab hayvon turlari: xongul, morxo‘r, Seversov qo‘yi, ko‘k sug‘ur,Turkiston silovsini, yirik yirtqich qushlar, hasharotlar muhofaza qilinadi. Jahondagi davlatlarning deyarli barchasida tabiat qo‘riqxonalari tashkil qilingan bo‘lib turlar miqdori kamayib borayotgan noyob hayvon va o‘simlik turlarini davlat muhofazasiga olgan. Bu turlarning xalqaro miqyosda kamayib borayotganlari «Xalqaro qizil» kitobga davlat miqyosida kamayib borayotganlari har bir davlatda tashkil qilingan «Qizil kitob»ga kiritilgan. Yana biri muhim omilni qayd qilish lozimki, turlari yo‘qolib borayotgan havon va o‘simlik turlarini saqlab qolish bo‘yicha davlat qo‘riqxonasi tashkil qilishdan boshqa usulni biron bir davlat kashf qilgan emas. O‘zbekiston respublikasida ham hozirga kelib 3 ta milliy park,9 ta davlat tabiat qo‘riqxonasi va 10 ta davlat buyurtmasi(zakaznik) tashkil qilingan.Bu qo‘riqxonalar vatanimizda ekologik

turizmni rivojlan tirishda asosiy ekoturistik ob'ektlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi sida quyidagi qo'riqxonalar mavjud.

2-Jadval

O'zbekiston Respublikasining davlat tabiat qo'riqxonalari

| Qo'riqxonalar | Ixtisoslas huvi | Maydoni, ga |
|---|--|--------------------|
| 1.CHotqol tog'-o'rmon-biosfera qo'riqxonasi | Tog' o'rmon landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni o'rganish va muhofaza qilish.Qor qoploni muhofazasi. | 35200 |
| 2.Hisor qo'riqxonasi | Tog'-o'rmon landshaftlari. Barcha tabiiy majmualarni o'rganish va muhofaza qilish. | 80986,0 |
| 3.Nurota tog'-yong'oq o'rmonlari qo'riqxonasi | Tog'-yong'oqzor o'rmonlari landshaftlari, Grek yong'og'ining tabiiy populyasiyalari, yovvoyi arxarlarning tabiiy populyasiyalari muhofazasi. | 21137,5 |
| 4.Surxon qo'riqxonasi | Tog'-o'rmon landshaftlari.Burama shoxli echkining tabiiy populyasiyalari(Morxo'r), tabiiy archazorlar muhofazasi. | 23802,38 |
| 5.Baday- to'qay biosfera rezervati | To'qayzorlar landshafti.Xalqaro Qizil kitob»dagi Buxoro bug'usining tabiiy populyasiyasi, to'qayzorlar o'rmonlarining muhofazasi. | 6462,1 |
| 6.Zarafshon qo'riqxonasi | To'qay lanshaftlari.Qirg'ovulning tabiiy populyasiyalari va chakanda butasining muhofazasi. | 2552,0 |
| 7.Qizilqum qo'riqxonasi | To'qay-qum landshaftlari. Buxoro bug'usining tabiiy populyasiyalari. | 10311,06 |
| 8.Zomin qo'riqxonasi | Tog'-archa landshaftlari. Archa o'rmonlari va uning hayvonot olamini muhofaza qilish. | 26848,6 |
| 9.Kitob geologik qo'riqxonasi | Tog'lar.Paleontologik- stragrafik ob'ektlarning muhofazasi. Xalqaro meridianning vatanimizdan o'tishi belgisi qo'yilgan. | 5378,0 |

Afsuski, hozirgacha bu qo'riqxonalarning tabiatini va ularda muhofaza qilinayotgan o'simlik va hayvon turlarini vatandoshlarimizning barmoq bilan sanarli miqdordagi ilmiy mutaxassislari, olimlarigina bilishadi.SHuning uchun ham mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro EKONET taklif qilgan eng qulay modellardan foydalanish muam molarini tezlikda hal qilishimi lozim bo'ladi. Nurota davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi janubi-g'arbida Jizzax viloyati Forish tumanidagi Nurota tizmasining markaziy qismida joylashgan.1975 yilda tashkil qilingan. Qo'riqxona maydoni 17752 ga, shundan 2529 ga o'rmon bilan qoplangan. YOng'oqning qadrli turlarini saqlab qolish va Seversov qo'yining noyob populyasiyasini himoyalash qo'riq xonaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Pomir-Oloy tog' tizimi va Qizilqum cho'lining oralig'ida

joylashgan qo‘riqxonada tog‘li, cho‘lli va boreal turlar, shuningdek ko‘p miqdorda endemiklarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos flora shakllandi. Asosiy muhofaza qilish ob’ektlari endemiklar, relikt va noyob o‘simliklar va o‘simlik hamjamiyatlari hisoblanadi. Umuman olganda qo‘riqxona florasi 600 dan ortiq (27 endemik) turni qamrab olgan. Avvallari Nurota tizmasi archa o‘rmonlari bilan qoplangandi, lekin ular o‘tgan asrdayoq kesib tashlangan. Qo‘riqxonada atigi 30 ga yaqin archa qolgan. Qo‘riqxona faunasi 183 turdan iborat, shundan 13 turi O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan.



Qo‘riqxonadagi Seversev qo‘ylari-yovvoyi arxarlar

Nurota davlat qo‘riqxonasi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda Qo‘riqxonalar, milliy tabiiy bog‘lar va ovchilik xo‘jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi. Qo‘riqxonaning Osrafsoyida qadimgi qoyatoshlarga

chizilgan qadimiy rasmlar saqlanib qolgan. Mujrumsoyda esa 1000 yoshli archalar bor. Uxum, Sintobsoy, Ustun qishloqlarida ham Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog‘lanib qolgan joylar, 1000 yoshli daraxtlar davlat muhofazasi ro‘yxatiga olingan. Nurota davlat qo‘riqxonasi Nurota tizmasining markaziy qismida joylashgan. Zaxira maydoni 17752 hektar. Nurota qo‘riqxonasi Xalqaro Qizil kitobi (IUCN) va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan noyob endemik kenja turi Severev yovvoyi qo‘y naslini saqlab qolish maqsadida 1975 yilda tashkil etilgan. Bundan tashqari u erda Grek yong‘og‘ning tabiiy genetik turlari va yovvoyi mevali daraxtlarning boshqa navlari ham himoyalananadi. Nurota qo‘riqxonasi hududi Markaziy Osiyoda yangi o‘simlik navlarini etishtirish markazlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.



Nurota tog‘ tizmalarining eng baland – Hayotboshi cho`qqisi

Nurota tizmasi Zarafshon daryosi o‘ng qirg‘oq bo‘ylab 250 km cho‘zilgan, ikki parallel tog‘ zanjirlaridan iborat. Tog‘ning shimoliy yon bag‘irlari Qizilqumga qaragan. Nurota tizmasi, yuqori proterozoy davrida shakllangan, Markaziy Osiyodagi eng qadimgi tog‘ tizmalaridan birihisoblanadi. Nurota tog‘larining eng baland nuqtasi – Hayotboshi cho`qqisi bo‘lib, uning baladligi dengiz sathidan-2169 metrni tashkil etadi. Iqlimi keskin kontinental, quruq va issiq. Tog‘ning pastki qismida joylashgan Qizilqum sahrosidagi issiq muhit Nurota tog‘laridagi iqlimga o‘z ta`sirini o‘tkazmaydi. Nurota tog‘larda buloqlar va ular asosida yuzaga keladigan soylar ko‘p. Bu oqimlar tog‘ning pastki etagigacha cho‘zilgan. Bu erda,

eng issiq yoz paytida ham salqinlikni kuzatish mumkin. Qishda, tez-tez sovuq havo kuzatilib, tuman tushib turadi. O‘rtacha yillik harorat yanvar oyida 1-8 °C. Qishda ko‘p qor yog‘adi, qish oxirida yomg‘irli, shamolli havo kuzatiladi. Qayd etilgan minimal harorat -32 °S hisoblanadi. O‘rtacha yillik yog‘ingarchilik yiliga 400 mm. Bahori qisqa, iliq, ba’zan hatto qor yog‘ishi ham kuzatilgan. YOz, uzoq, quruq va issiq, o‘rtacha harorat iyul oyida 29,4°C, umumiylar quyosh nurlanishi 130-140 kkal/sm²-ni tashkil etadi.

Nurota qo‘riqxonasi hududi Haydar ko‘li tomon toza va shaffof suvlar oquvchi turli o‘lchamdagisi o‘ndan ortiq suv oqimlari (soylar) bilan kesiladi. Nurota tog‘laridan oqayotgan soy va kichik daryolar suvi toza va ko‘p hajmga ega emas. Nurota tizmasining markaziy qismidagi ko‘plab buloqlar faqat bahorda faolashish xususiyatiga ega. Nurota tizmasi Pomir-Oloy va Tyan-SHan tog‘ tizimlari va Turonning cho‘l tekisliklar orasidagi, hududlar ichida o‘ziga xos muhiti tufayli hosil bo‘lgan original flora dunyosi bilan ajralib turadi. Ham tog‘li va ham cho‘lli hududlarida shifobaxsh xususiyatlari o‘simlik turlari ko‘p uchraydi. Nurota tizmasida 78 oilaga tegishli tomirlari o‘simliklarning 814 turi mavjud. Ayni paytda, Nurota tizmasidagi o‘simliklarning 29 turi O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan, ulardan 3 turini lolalar, 5 turini astragal va boshqa o‘simlik turlari tashkil etadi.



Qo‘riqxona hududlaridagi yassi tog‘larning bahor oyida ko‘rinishi

Bu hududda mahalliy aholining asrlar davomida band bo‘lgan bog‘dorchilik faoliyatidan dalolat beruvchi, ko‘plab buta va daraxtlarni, ayniqsa, boy sun’iy mevali o‘rmonlarni ko‘rish mumkin. Bu noyob landshaft turlaridan sanagan sun’iy o‘rmonlar yong‘oq va boshqa daraxtlardan tashkil topgan. O‘rmonlarning bir qismini yong‘oq, olma, qora va oq tut, o‘rik, olcha, uzum, nok kabi mevali daraxtlar tashkil etsa, boshqa qismi terak, tol, qayrag‘och kabi ham manzarali, ham qurilish daraxtlaridan iborat. Tog‘ yon bag‘rlaridagi buta va o‘rmonzorlar asosan achchiq bodom va shu kabi daraxtlardan tashkil topgan. Bundan tashqari, bu erda Markaziy Osiyo mintaqasi juda kam uchraydigan daraxt-SHarqiy biota ham bor. Ming yoshli biotaning aylanasi 8,5 metr bo‘lib, Mujrum qishlog‘ida joylashgan. Bu daraxt Markaziy Osiyo florasida uchramaydi. Daraxt haqida mahalliy aholi orasida ko‘plab afsonalar bor. Biri bu daraxtni Aleksandr Makedonskiy ekgan deyishsa, biri o`tmishdagি bog‘dorchilikga havaskor savdogarlar olib kelishgan deyishadi.



Qo‘riqxonadagi Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog‘langan qadimiy daraxt

Nurota davlat qo‘riqxonasi o‘ziga xos boy va rang-barang fauna olami bilan ham ajralib turadi. U yerda sut emizuvchilarining 34 turi mavjud. Bu yerda keng tarqalgan va boshqa hududlarda kam uchraydigan turlardan biri bu Seversev

qo‘ylari hisoblanadi. Bu yovvoyi qo‘yning tilimizdagи nomi – arxar. SHu bilan birga, bu yerda noyob hayvonot olamining boshqa turlarini ham uchratish mumkin. Yirtqichlardan tulki, bo‘ri, to‘ng‘iz, shoqol va boshqa turlari asosan tog‘ning baland qismlarida ko‘plab uchraydi. Qo‘riqxonada alohida muhofazaga olingan sut emizuvchilarning noyob turi bor — alqorlar. Bir zamonlar alqorlar Nurota, Oqtog‘, Qoratog‘, Molguzar, Turkiston, Bo‘kantog‘, Sulton Uvays, Tomdi tog‘lari va Markaziy Osiyoning boshqa tog‘li, adirli hududlarida ko‘p tarqalgan edi. Aholi punktlarining ko‘payishi, chorva mollarini boqishda tog‘lardan yaylov sifatida foydalanish va eng asosiysi, alqorlarning tansiq go‘shti, terisi uchun qirg‘in qilish ular sonining keskin kamayishiga olib keldi. Alqorlarning tarqalish maydoni qisqarib, faqat Nurotadagina saqlanib qoldi. O‘tgan asrning 80-yillarida alqorlarning endemik turi — Seversev qo‘yi (Qizilqum qo‘yi) keskin kamayib ketdi. Zarur choralar ko‘rilmasa bu nodir hayvon butunlay yo‘q bo‘lib ketish ehtimoli ham bor edi. Mustaqillik yillarda alqorlar muhofazasiga alohida e’tibor qaratildi. Ularning tabiiy ko‘payishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda qo‘riqxonada alqorlar populyasiyasining 70 foizi, ya’ni 1700-1800 boshi mayjuddir. Tog‘ning pastki tomonida esa, bo‘rsiq, cho‘l mushugi, suvsar kabi hayvonlarini ko‘rish mumkin. Tog‘ etaklarida va o‘rmonzorlarda yovoyi cho‘chqalar yashaydi, qo‘riqxonaling tabiiy muhit uarning yashashi uchun qulay shart sharoit yaratadi. Seversev qo‘ylari Nurota davlat qo‘riqxonasiдagi noyob va o‘ta qiziqarli bo‘lgan sut emizuvchilardan sanaladi. Ayni paytda bu erda saqlanayotgan qo‘ylarning soni 1700-1800-tani tashkil etadi. Bu noyob tog‘ qo‘yi turi qo‘iqxona tashqarisida deyarli uchramaydi.

Baliq turlaridan faqat bitta O‘zbekiston bo‘ylab keng tarqalgan-Marinka turi mavjud. Tog‘ tepasida dengiz sathidan 1100-metr balandlikda joylashgan Fozilmon ko‘lida yashil qora qurbaqalarni va ko‘l qurbaqalarini uchratsish mumkin. Qo‘riqxonada sudraluvchilarning 21 tur qayd etilgan. Ular orasidan bir nechtasi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Kaltakesak va noyob ilonlarning ko‘p turlari shular jumlasidandir. Sudralib yuruvchilarning bir qismi cho‘llarda, qolgan qismi tog‘ yon bag‘rlarida yashaydi. Nurota davlat qo‘riqxonasi ko‘p sonli

qushlarning migratsiya yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Kuzda va bahorda qo‘riqxona hududida qushlarning turli xillarini uchratish mumkin. Bu erda qayd etilagan qushlarning 196 turidan 103 turi qo‘rbqxonani o‘z makonlariga aylantirganlar.



Qo‘riqxonada eng yirik qush burgutdan tortib mayda va sayroqi ovozi bilan mashhur bo‘lgan qush bulbullar ham muhofazaga olingan.

Qo‘riqxonada uchraydigan qushlar orasidan 9 turi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Bu erda qora laylak, qora kalxat, Griffon-yirtqich qushi, Oltin burgut, Ilon burgut kabi qush turlarini uchratish mumkin.

2.2. Nurota tog‘ – o‘rmon davlat tabiat qo‘riqxonasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari

Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasidan ekoturizm va rekreatsiyada foydalanishdagi muammolar O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish muammolari tarkibida turadi va Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasidan ekoturizmda foydalanish muammolarini aynan Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasining o‘zi uchun hal qilib bo‘lmaydi. CHunki, mamlakatimizdagi barcha davlat tabiat qo‘riqxonalaridan ekoturizmda foydalanishga hozirgacha ruxsat berilgan emas. Ekoturizmni rivojlantirishda «O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiysi» dasturlari bo‘yicha katta ishlar bajaril moqda. SHu bilan birga Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirishda echimlari ancha og‘ir, jiddiy bo‘lgan muammolar ham to‘planib qolgan. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z echimini kutib turgani,

ekoturizmni rivojlantirishdagi bosh ekoturizm resurslarining davlat muhofazasida turganligidir. Respublikamizda ekoturizm rivojlanishi kerak bo‘lgan birinchi navbatdagi ekoturizm resurslari davlat muhofazasida ekanligi ma’lum. Bu holat juda to‘g‘ri qaror qilingan. Dunyoning barcha davlatlarida ham 8-jadvaldagi tabiiy hududlar o‘zining o‘simpliklar olami va hayvonot dunyosi bilan qattiq qo‘riqlanadi. SHu bilan birga ta’kidlash lozimki, juda ko‘plab davlatlarda ayniqsa, tabiatda noyob o‘simplik yoki hayvon turlari muhofaza qilinadigan qo‘riqxo nalardan ham ekoturizm maqsadlarida samarali foydalanishadi. Bunga misol qilib Afrika, Kanada, Amerika, Avstraliyadagi qo‘riqxonalar, rezervatlар va milliy parklar haqidagi kino serialarning tobora ommaviy lashib borayotganligini keltirish mumkin. Bu holatning eng muhim sababi, bu muhofazadagi manzillardan ekotur izmda foydalanishning huquqiy-qonuniy me’yorlari yaratilganligidir va bu qonunlarga «mehmonlar» ham «mezbonlar» ham qattiq rioya qilishadi. Respublikamizdagi tabiat qo‘riqxonalariga faqat ilmiy xodimlar kirishga ruxsat beriladi. Bu qo‘riqxonalarga hatto maxsus ilmiy ekspedi siyalar ham “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi”ning ruxsatnomasini olishi kerak. Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasida o‘tkazilgan bitiruv oldi malakaviy amaliyotini o‘tish davrida to‘plagan ma’lumotlar va kuzatuvlar natijasida ushbu tabiat qo‘riqxonasida ekoturizmni rivojlantirishdagi muammolar quyidagilar hisoblanadi:

1. Qo‘riqxonaning rahbariyatiga qo‘riqxonada ekologik turizmni rivojlantirishga davlat ruxsat bergen emas.
2. Qo‘riqxonaga ekoturizm-rekreatsiya turistik marshrutlari ishlab chiqilmagan.
3. Qo‘riqxonada ekoturizm-rekreatsiya so‘qmoqlari yaratilmagan.
4. Qo‘riqxonadan ekoturizm-rekreatsiya maqsadlarida foydalanishda Samarqand shahridagi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rahbariyati bu muammoda umuman tashabbuskorlik chora-tadbirlarini boshlamagan.
5. Qo‘riqxonada ekoturizm so‘qmoqlari, marshrutlari va bu marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishga haligacha kirishilgan emas.

6.Qo‘riqxonada ekologik turizmni rivojlantirishda tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznesi, mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bo‘lishidagi ta’lim – targ‘ibot, qiziqtirish ishlari qoniqarsiz ahvolda.

7.Qo‘riqxona rahbariyati qo‘riqxonada ekoturizmni rivojlantiriшда ichki ekoturizm va xalqaro ekoturizmning milliy reklamasi ichki ekoturizm bozorida ham, tashqi ekoturizm bozoriga ham chiqarish ishlari bilan shug‘ullanmaydi.

Ekologik turizm ehtiyojlarining eng muhim masalalaridan biri-aholining rekreatsiya xizmatlariga bo‘lgan talablarini qondirish darajalarini oshirish hisoblanadi. Lekin, mamlakatimizda hanuzgacha bu muammolarni hal qilish tizimi ishlab chiqilmagan. Ekoturizm ehtiyojlarini iqtisodiy isbotlangan baholarda asoslashgina aholini ekoturizmdan bahramand bo‘lishi shakllari va usullaridan foydalanishga undaydi.

Ekoturistik faoliyat zamonamizning muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillariga aylanib bormoqda. Ekoturizm faoliyatni tashkil qilish majmuali xususiyatlarga ega bo‘lib, har qanday ekoturizm tizimida dam oluvchilar guruhi, tabiat majmualari, texnik infratuzilmalar, xizmat ko‘rsatish sohalari, mehnat resurslari, tashkiliy-iqtisodiy va tashkiliy-tarqalish tizimlari o‘zaro aloqada, o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi. SHunday ekan, turistik firmalar va turistik tashkilotlar Rossiyalik taniqli olim M.B. Birjakovning “Turizmni o‘rganish vaqtি, turizm bilan shug‘ullanish vaqtি, turizmdan daromad olish vaqtি” degan shiori bo‘yicha ishlab ekoturizm-rekreatsiyaning rivojlanishi tashabbuskorlik harakatlari bilan uzviy holatlarda bog‘lik ekanliklarini yaxshilab anglab olishlari talab qilinadi. Zeroki, tashabbuskorlik tadqiqotlari har bir tashkilotning samarali rivojlanishini, uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab beradi. Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasidan ekoturizm-rekreatsiyada foydalanishda qayd qilingan muammolarning echimiga Samarqand iqtisodiyot va servis instituti va qo‘riqxona rahbariyatining bir maqsad yo‘lida o‘zaro hamdo‘stlik va o‘zaro hamkorligini tashkil qilish nuqtai-nazaridan qarash maqsadli bo‘ladi. Bu o‘zaro hamdo‘stlik va o‘zaro hamkorlik natijasida

qo‘riqxonadan ekoturizmda foydalanishdagi muammolarning echimi uchun quyidagi iqtisodiy-tashkiliy ishlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

1.Qo‘riqxona rahbariyatiga qo‘riqxonada ekologik turizmni rivojlantirishga davlat ruxsati olishning huquqiy-me’yorlarini tayyorlash va davlat tashkilotlariga chiqish.

2. Qo‘rixonada ekoturizm so‘qmoqlari, marshrutlari va bu marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishni boshlash.

3.Qo‘rixonada rahbariyati ekologik turizmni rivojlantirishda tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznesi, mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bo‘lishidagi ta’lim – targ‘ibot, qiziqtirish ishlarini boshlashi va follashtirishi lozim.

2.3. Qo‘rixonasidan ekroturizmda foydalanishda turistlarning hayoti havfsizligini ta’minlash chora –tadbirlari

Turizmdagi boshqa turistik marshrutlarga taqqoslaganda ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotiga havf soluvchi manbalar anchagina. Chunki ekoturizm marshrutlari tabiatimizdagi barcha ekologik iqlim mintaqalarini o‘z ichiga oladi. Bu ekologik iqlim mintqalarining barchasida tabiatdagi zaharli hashoratlar, sudralib yuruvchilar yashashadi. Ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotiga havf soluvchi vaziyatlar va manbalarni quyidagi tartibda guruhash mumkin:

1. Zaharli sudralib yuruvchilar (ilonlar) va hashoratlar (qoraqurt, pashshalar) chaqishi havfi.
2. Iqlimning ta’siri havfi (issiq urishi, tog‘larda qon bosimi oshishi, o‘simliklarning allergiya chaqirishi, shamollash).
3. Ichki kasallikkarning kelib chiqishi havfi (meva sabzovatlardan, mahalliy suvlardan, mahalliy – milliy ovqatlardan).

4. Transport vositalarining cho‘lda va tog‘liklarda, notekis yo‘llarda yurishdan kelib chiqadigan havf.

Ekologik turizm marshrutlarida transport vositalari va iqlimi havflarning turistlar hayotiga havf solishi haqida ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda «faoliyatlichkeit» tamoyili talablarida yozildi. Ekoturizm marshrutlarida tabiatdagi zaharli ilonlar, hashoratlar haqida marshrutning «axborotlanganlik» tamoyili bo‘yicha zaharlanish haqida marshrut ma’lumotlarida ogohlantirish xabarları yozilishi, zaharli ilonlar, chayon va qara-qurtlarning qaerlarda ko‘proq uchrashi yoki bo‘lishi albatda yozilishi shart bo‘ladi.

Mahalliy iqlim sharoitlari manbalari asosida turistlarda ichki kasalliklar kelib chiqishini oldini olish uchun mahalliy suvdan foydalanmaslik, mahalliy aholi ovqatlarini bilan holda ovqatlanish, mevalarning xususiyatlari haqida og‘zaki ogohlantirishlar, axborotlar, suhbatlar o‘tkazish albatda kutilmagan havfning oldini oladi. Ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotida havf paydo bo‘lganda quyidagi havf oldi va so‘nggi tadbirlar marshrut hujjatlarida aks ettirilishi albatda zarur:

1. Ekoturizm marshrutlarida ilonlar, chayon qoraqurtdan zaharlanishiga qarshi va boshqa ichki kasalliklarning oldini oluvchi dorilar, zardoblar vositalari bo‘lgan «ekoturizm aptechkasi - dorixonacha» si bo‘lishi.
2. Turistlarning ekoturizm resurslari makonlarida yakka holda yurmasligi.
3. Zaharlangan holatda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadigan tibbiyot mutaxassisining marshrut davomida turistlar bilan birga bo‘lishi.
4. Ekoturizm marshrutlari o‘tadigan joylardagi yaqin kasalxonalar, vrachlik – feldsherlik makonlarining adreslari, telefonlari marshrut hujjatlarida bo‘lishi, doimiy mobil aloqalarining ishlab turishini ta’minalash.
5. Transport vositalarining texnik sozligini doimo nazorata olish va marshrutga chiqish oldidan yo‘llarning holatini kuzatib chiqish.

Qayd qilingan tadbirlar ekoturizm marshrutlariga chiqishdan oldin qanchalik mukammal o‘tkazilsa marshrutning – turning havf-xatarsiz, kutilmagan noxush janjallarsiz muvaffaqiyatli o‘tkazilishni ta’minalaydi. Ekoturizm marshrutlarini

ishlab chiquvchilar va marshrutlarni o‘tkazuvchilar marshrutlarda turistlar va xizmat qiluvchilar hayotiga havf soluvchi manbalarni oldin bashoratlab bu havfni o‘z vaqtida bartaraf qilish ishlariga o‘ta ma’sul va javobgardirlar.

Ekologik-ekskursiya xizmatlarida turistlarning hayoti havfsizligini ta’minlash. Turizm marshrutlaridagi ekskursiyalarda turistlarning hayotiga havf soluvchi vaziyatlar transport xizmatlarida, dam olish xizmatlarida, sayrlarda va ovqatlanish xizmatlarida ham yuz berishi mumkin. CHunki, marshrutlardagi ekskursiyalarda ham turistik marshrutlardagi barcha xizmatlar ko‘rsatiladi. Ayniqsa ekoturizm marshrutlaridagi (tog‘larda, suv havzalarida, daralardagi so‘qmoqlarda va hakozo...) ekskursiyalarda harakatlanishdagi havfsizlik oldindan ta’minlanishi zarur.

Turistlarni tog‘ so‘qmoqlarida tabiat bilan tanishtirish ekskursiya larida ehtiyyotlik choralariga, tartib-intizomga rioya qilish kerak. CHunki, bunday sharoitda turistlar surinib, pastliklarga tushib ketishi yoki oldinda ketayotgan turistlarning noto‘g‘ri harakatlaridan pastda kelayotganlar ustiga toshlar yumalab ketishi hollari yuz berishi mumkin. Ekskursiyalar o‘tkazish davrida (ekoturizm ekskursiyalarida) tabiatning so‘lim joylarida dam olish istagi paydo bo‘lgan hollarda, turistlarni qisqa muddatli ovqatlantirishda tushonka, kolbasa, brinza yoki oldindan pishirilgan ovqatlarning toza saqlanganligi, sifati tekshirilgandan keyin foydalanishi lozim. Ichimliklar albatda termosda choy, gazlangan suv o‘z idishlarida saqlanishi kerak.

Turistik marshrutni o‘tkazishda turistlarning hayoti havfsizligini ta’minlashda eng ishonchli vositalar bo‘lishi tibbiyat markazlari va ularning bo‘limlari bilan doimiy telefon aloqalarning mavjud bo‘lishligi marshrut rahbari uchun ma’suliyatli, majburiy vazifa bo‘lishligi talab qilinadi. Ikkinchidan, marshrut rahbari marshrutga yaqin bo‘lgan va atroflardagi tibbiy yordam ko‘rsatish punktlari joylashgan manzillarni juda yaxshi bilishlari kerak. Uchinchidan, marshrut davomida tibbiyat dorilar qutichalari (aptechkalar) bo‘lishligi ham marshrut hujjatlarida rasmiylashtirilishi talab qilinadi.

Turistik marshrutlarda turistlarning hayoti havfsizligini ta'minlash dagi birinchi chora-tadbirlar bu-marshrut boshlanishida turistlarga marshrut da tartib-intizomning saqlanishi, havfli vaziyatlar yuzaga kelishidan ehtiyot bo'lish haqida qisqacha tushuntirish ishlari o'tkazilishi va bu haqida marshrut axborotnomasida alohida qaydlar bo'lishini amalga oshirishdir.

Turistik marshrutlarda turistlarning birortasi bilan ko'ngilsiz, hayotiga havf soluvchi voqealar yuz berganda tezkor usullarda bunday voqealar ni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rildi. Agar bunday voqe'alarga marshrut tashkilotchilari aybdor bo'lishsa uzr so'rashni turistik tashkilot rahbari bajaradi. Marshrut tugagandan keyin yuz bergen voqealarga turistik firma jamoasi ishtirokida muhokama qilinib tegishli qarorlar qabul qilinishi kerak.

Turistlarning hayotiga havf soluvchi omillar, vaziyatlar, ob'ektlar, holatlar haqida so'z yuritganda e'tibor berish lozimki, turist mehmonxonaga kelib joylashgandan keyin o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan marshrutda bo'ladi.U yoki ular (turistlar) hohishi bo'yicha mehmonxona yaqinida joylashgan ob'ektlarga (parklarga, ko'chalarga, binolarga, markazlarga va hako...) qisqa muddatli sayrlarga chiqishi ham marshrut sxemasida bo'ladi va bu yurishlar, tanishishlarda ham turistlarni albatda marshrut rahbari (turoperator bosh lab yuradi). SHuning uchun ham turistlarning hayotiga havf soluvchi holatlar, omillarni marshrut rahbari (turfirma xodimlari) juda yaxshi bilib olish lari zarur bo'ladi.

Turistlarning hayotiga havf soluvchi omillar quyidagicha ta'riflanadi;

1. Zararli omillar;

- jarohat olish havfi;
- yong'inda qolib ketish havfi;
- biologik ta'sir qilish havfi (atrof - muhit);
- ruhiy-jismoniy yuklama olish;
- kimyoviy zararlanish havfi;
- tutundan va gazdan zaharlanish havfi;
- turistning tavakkalchasiga harakatlanishidan kelib chiqadigan havf lar.

2. Biologik omillar;

- mikroorganizmlar (mikroblar)dan zararlanish havfi (oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi);
- zaharli o'simliklardan zaharlanish havfi;
- zaharli sudralib yuruvchilar (ilonlar, hasharotlar), hasharotlar (chayon, qoraqurt, ari) dan zaharlanish havfi;
- yuqumli kasalliklar tashuvchi yovvoyi va xonaki hayvonlar, parran dalardan har xil kasallikkarni yuqtirish havfli; allergiya va boshqa kasallikkarni chaqiruvchi o'simlikzor, o'tloqzor va o'rmonzorlarda ushbu kasallikkarni yuqtirish havfi;
- mevalar, sabzavotlardan zaharlanish havfi.

3. Kutilmagan omillar;

- turistlar joylashtirilgan joylarda tabiatning favquloddagi hodisalari (suv toshqini, qor ko'chishi, ob-havoning keskin o'zgarishi va hokazolar)dan kelib chiqadigan havflar;
- turistlar joylashgan joylardagi aholi, jamoatchilikdagi tartib-intizomning bo'shligidan kelib chiqadigan havflar;
- turistlar foydalanayotgan mehmonxona, lager binolarining texnik holati, kanatli sim yo'llar, chang'i yo'llari, avtomagistrallar, so'qmoq lar va boshqa ob'ektlarning texnik sozligi holatidan kelib chiqadigan havflar.

III BOB. NUROTA TOG‘ – O‘RMON DAVLAT TABIAT QO‘RIQXONASIDA EKROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Nurota tog‘ – o‘rmon davlat tabiat qo‘riqxonasidan ekoturizmda zamonaviy reklamalarini yaratish

Reklama turizmning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, turistlarga faqat sayohat vaqtida emas, balki undan so‘ng ham xizmat ko‘rsatadi. Bu esa reklamaga alohida ma’suliyat yuklaydi va turizmdagi tovar va xizmatlarni taklif qilishda turizm bozoridagi axborotlarga to‘la moddiy mahsulot vazifasini bajaradi. YOdda tutish lozimki, turistik marshrut qanchalik mukammal ishlab chiqilsa uning reklamasi mazmuni shunchalik qiziqtiruvchi ma’lumotlarga boy bo‘ladi. Turizm bozorida reklama qanchalik ko‘p bo‘lsa, xalqaro miqiyosda ham mahalliy miqiyosida ham turistlar oqimining kuchayishiga ijobjiy ta’sir qiladi.

Turistik marshrutlar alohida turlar uchun ishlab chiqilganligidan uning reklamasi ham turlar bo‘yicha alohida reklama qilinadi. Bu reklama mazmuni reklama qilinayotgan turga bag‘ishlanadi. Marshrutlarning reklama mazmuni tanlanganda va ishlab chiqilganda quyidagilarga e’tibor berish lozim bo‘ladi;

- Reklamaga turning eng qiziqarli, asosiy resursi-ob’ektini kiritish;
- Reklamada marshrutning yo‘nalishi atrofida joylashgan (agar mavjud bo‘lsa) diqqatga sazovor turistik ob’ektlarni rangli tasvirlash. Reklamada marshrut davomida o‘tkaziladigan ekskursiyalarning qiziqarli ob’ektlarini rangli tasvirlash;
- Reklamada marshrut davomida ko‘rsatiladigan xizmatlarni tasvirlash.

Turizmda ishlab chiqiladigan marshrutlarda ekskursiyalar (sayrlar) qanchalik ko‘p bo‘lsa marshrutning betakrorligi, jozibadorligi, turli-tumanligi shunchalik kuchli bo‘ladi. Har qanday turob’ektga turistik marshrutning reklamasini ishlab chiqilganda marshrut davomida nechta ekskursiya o‘tkazish rejalashtirilsa barchasi haqida turmarshrut reklamasida rangli rasm va qisqacha izoh bo‘lishi marshrutni tanlangan turist uchun yaxshi axborot bo‘ladi.

Ekoturizm, rekreatsion turizm va boshqa turizm turlari bo‘yicha shaharlardan uzoq masofadagi diqqatga sazovar joylar, tarixiy obidalar va mashhur kishilar hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy-madaniy joylar albatda turmarshrut reklamasida aks ettirilishi lozim. Masalan, Samarqand shahridan Qashqadaryo tomon chiqilganda bu yo‘nalishdagi barcha turistik marshrut reklamasida albatda yo‘l bo‘yidagi Oqsoy qishlog‘i tog‘laridagi Dovud payg‘ambar g‘origa ekskursiya uyushtirilishi va bu g‘orning jahonga mashhurligi, jahon miqyosidagi ziyoratgoh joyligi marshrut reklamasidan albatda joy olishi turistlarda katta ta’surot qoldiradi. Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, turistik marshrutni reklama qilganda marshrutni ishlab chiquvchi ham va uni reklama qiluvchi ham vatanimizning tabiiy, tarixiy geografiyasini juda yaxshi bilishi, ayniqsa turistik marshrut atrofidagi diqqatga sazovor ob’ektlar, joylar va markazlarni turistdan oldin yaxshilab tanishib chiqishi zarur. Turistik marshrut davomida turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida ushbu o‘quv qo‘llanmadagi mavzularda batafsil yozildi. Endi turistik marshrutdagi xizmatlarni ham marshrut reklamasida aks ettirish turistlar uchun talab qilinadigan axborotlar ro‘yxatida turadi. Turistik marshurtlardagi xizmatlar reklamada tasvirlaganda reklamadagi asosiy ob’ektlardan, qo‘sishmcha ob’ektlardan va ekskursiya ob’ektlaridan keyin qo‘yilishi mumkin. Bu holatda dastlab marshrutda xizmat qiladigan yuqori komfortli transport xillari, ovqatlanishdagi milliy taomlar, eng so‘ngida dam olishdagi sharoitlar kichik rangli rasmlarda ham berilishi turistlarni ancha xotirjam qiladi. Ular marshrut davomida yuqorida qayd qilingan xizmatlarni so‘rab-surishtirishib yurmaydi. Respublikamizda hozirgi kunga kelib CHimyon tog‘-chang‘i sporti turizmi majmuasi, yirik, xalqaro kurortlarimiz jahon andozalari talabida reklama chiqarmoqda va xalqaro turizmda turistlar oqimining kelishiga yaxshi sharoitlar yaratmoqda.

Xalqaro ekoturizmda tabiat qo‘riqxonalari va milliy parklardan ekoturizmni rivojlantirishda foydalanish yildan-yilga kuchayib bormoqda. Bu holatning asosiy sababi shundan iboratki, tabiat qo‘riqxonalarida oxirgi sonlari qolgan, tabiiy

mintaqalar yoki davlatlarda endemik bo‘lgan yovvoyi hayvonlarni ko‘rishga qiziqadilar.

Nurota davlat qo‘riqxonasi mamlakatimizdagi eng keksa qo‘riqxonalarda biri bo‘lib, vatanimizda o‘tgan asrning 70 yillariga kelib tartibsiz va doimiy ov qilinishi natijasida deyarli qirilib bitgan va sanoqli sonlari qolgan yovvoyi qo‘ylar arxarlarni saqlab qolish maqsadlarida tashkil qilingan edi.

Hozirga kelib, bu noyob jonivorlarning soni ming boshdan oshgan Qizilqum yovvoyi arxarlarining eng ko‘p bo‘lgan sonlari faqatgina bizning mamlakatimizda saqlanib qolgan. SHuning uchun ham ekoturistlarni Nurota davlat qo‘riqxonasiga qiziqtirishdagi reklamaning asosiy mazmunini Arxarlar tashkil qilishi lozim.



Nurota qoyatoshlaridagi ikki ming yillik qadimiy rasmlar

Qadimiy petrogliflar (Ikki ming yillik tosh suratlari) ning makoni bo‘lgan Sarmishsoy milliy parki jahonga mashhur hisoblanadi. Nurota tog‘larining juda ko‘plab manzillaridagi qoyatoshlarda qadimiy rasmlar topilgan va ro‘yxatga olingan. Bu rasmlarning bir qismi ishning ikkinchi bobida keltirildi. Rasmlar oradan ikki ming yil o‘tgan bo‘lsa ham aniqligi va hayvonlarning tana tuzilishining to‘g‘ri chizilganligi bilan insonni hayratga soladi. Yana bir hayratlanarli joyi shundaki, rasmlarning oldingi fonida aynan arxarlar tasvirlangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, hozirdan ikki ming yil oldin ham Nurota hududlari arxarlarning makoni bo‘lgan.

O‘zbekistonning “keksa” daraxti. Nurota tog‘ tizmalar etagida joylashgan Mojrumban qishlog‘ining g‘arb tomonida tanasiga o‘n kishining qulochi etmaydigan azm sarv daraxti savlat to‘kib turibdi. Bu daraxtni kim ekkanini so‘rab qolsangiz, mojrumban qiziq afsonani so‘zlab berishadi. Lekin Nurota davlat qo‘riqxonasida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek va nemis olimlari hamkorlikda ushbu daraxtning yoshini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar. Amalga oshirilgan biologik tekshirishlardan keyin ikki davlat olimlari sarv daraxtining yoshi ming yildan oshiq, degan xulosaga kelishdi. Daraxt dunyodagi barmoq bilan sanalarli eng «nuroniy» daraxtlar ro‘yxatiga kiritildi va davlat himoyasiga olindi.

Fozilmon ko‘li. Forish tumanida joylashgan, XVI asrga taalluqli qadimda bo‘lgan bog‘ qoldiqlaridan iborat Abdullaxon chorborg‘i, XIV asrga mansub maqbara qoldiqlari va arxeologik tepalikdan iborat tarixiy yodgorliklar ta’mirlash, obodonlashtirish ishlari olib borilishiga anchayin muhtoj. Fozilmon ko‘li baland tog‘da joylashganligi bilan insonni hayratga soladi. Bu ko‘lga bormagan odam tog‘ning pastki qismida turib yuqorida zilol suvli katta ko‘l borligini tasavvur ham qilaolmaydi. Bu betakror joylarda aholimiz uchun rekreatsiyani tashkil qilish, aholining dam olish tizimi infratuzilmalarini tashkil qilish turizmni rivojlantirishda maqsadli yo‘nalishlardan biri bo‘ladi.



Tog‘ning yuqori qismida joylashgan Fozilmon ko‘lida ekoturizm-rekreatsiyani rivojlantirishning juda katta imkoniyatlari bor

Qo‘riqxona hududlarida joylashgan qishloqlar asosan tog‘larning buloqlari atrofida joylashgan.



Asraf, Hoyat, Uxum, Sentob, Esh kabi tog‘qishloqlari tog‘ tizmalarini oralaridagi soylarda va daralarda joylashgan.

“Sentob” qishloq fuqarolar yig‘inida sayyoohlar uchun barcha sharoit yaratilgan. “Sentob shaxi Mustafo” xususiy korxonasining 30 o‘rinli mehmonxonasi sayyoohlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Qoya toshlarga ishlangan V-VI asrlarga oid petrogliflar, tog‘ tepasidagi ko‘hna qo‘rg‘on qoldiqlari, XI-XVIII asrlarga oid toshga o‘yilgan yozuvlar hamda qishloqning eng yuqori nuqtasidagi Fozilmon ko‘li manzaralari mehmonlarni hamisha qiziqtirib keladi.

Malakali tarjimon-ekskursovod ko‘magida tashrif buyuruvchilarga namunali xizmat ko‘rsatib kelinmoqda, – deydi xususiy korxona rahbari SHodiboy Boboev. – Qishloq tabiatining o‘zi bir ajoyib manzara bo‘lsa, tog‘ning yuqori qismidagi qadimiy tosh bitiklar noyob tarixdir. Hudud havosining musaffoligi, xushmanzara tabiat mehmonlarga unutilmas lahzalarni baxsh etadi. Ayniqsa, qishloq o‘rtasidagi sersuv Akko bulog‘ining shifobaxsh suvi sayyoohlar e’tiborini tortadi.



Qadimdagi mirishkorlarning mukammal muhandisligidan xabar berib kelayotgan “Abdullaxon bandi”- “Xonbandi”-XVI –asr hozirda ekoturist-rekreantlarning so ‘lim makonlaridan biri hisoblanadi.

Sentobsoy 17-18 kilometr balandlikdagi buloqlardan hosil bo‘ladi. Hududdagi aholi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Mazkur sayyoqlik yo‘nalishi bo‘yicha turizmni yanada rivojlantirish, tarix va tabiat ixlosmandlari uchun munosib sharoitlar yaratish borasida soha xodimlari tomonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Qo‘riqxona hududida 78 oilaga mansub 820 xil o‘simplik turi mavjud. SHundan 24 tasi endemik turdir. SHuningdek, hasharotlarning 761 turi, sudralib yuruvchilarning 21, ornitofaunaning 196 turi, sut emizuvchilarning 34 turi bor. Ularning ko‘pchiligini alohida muhofaza qilish maqsadida Xalqaro va O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan. Qo‘riqxonaning tabiat resurslari keng miqyosda ekoekskursiya va ekoturizmni tashkil etish imkoniyatlarini beradi. Ekoturizmdan tushadigan mablag‘lar hisobidan qo‘riqxona moddiy-texnik bazasini mustahkamlash mumkin. Ekoekskursiyalar esa yoshlarning olgan ekologik bilimlarini mustahkamlaydi, ular qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat uyg‘onadi, ekologik madaniyat shakllanadi. Mana shu tabiat — o‘simpliklar, hayvon va parrandalarni asrash, muhofaza qilishga o‘zi ham bevosita javobgar ekanligini anglab etadi.

3.2. Nurota tog‘ – o‘rmon davlat tabiiy qo‘riqxonasiga ekroturistik marshrutni yaratish

Xalqaro turizmni shuningdek, milliy turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri esa turistik marshrutlarni ishlab chiqish va bu marshrut larga turistlarni jalg qilish hisoblanadi. Puxta, qiziqarli ishlangan turistik marshrut turistlarni ko‘plab jalg qiladi. SHuning uchun ham, turistik marshrutlarni mukammal ishlab beraoladigan malakali mutaxassis larga talab juda katta. Turizm marshrutlarini yaratish bo‘yicha hozirda oliy ta’limdagi bakalavrлar va turizmdagi tadbirkorlar uchun o‘quv qo‘llanma nashr qilingan. Ushbu o‘quv qo‘llanmada turizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi barcha talablar va marshrut yaratish namunasi keltirilgan. Zarafshon mintaqasida faoliyat ko‘rsatuvchi turistik firmalar xalqaro turizmning turistik marshrutlarini ushbu o‘quv qo‘llanmadagi talablar bo‘yicha yaratishi mumkin.

Turistlarga xizmatlar ko‘rsatish talabnomasi. Turistik marshrutda turni loyihalashtirish Rossiya davlati turizmida qabul qilingan GOST R-50681-94-«Turistik–ekskursiya xizmatlarini ko‘rsatish» bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Bu hujjat bo‘yicha turistlarga xizmatlar ko‘rsatish talabnomasi da quyidagilar bo‘lishi shart.

- turistlarga xizmatlar ko‘rsatishning shakli va usullari, jarayonlarini yozish;
- turistlarga xizmatlar ko‘rsatish jarayonini tavsiflash;
- xizmat ko‘rsatuvchilarning soni va malakaviy jihatdan tayyorgarligi;
- Xizmatlar ko‘rsatishning shartnomaligi yoki shtatdaligi;
- turistlarga xizmatlar ko‘rsatishning kafolatlanganligi;
- xususiy mulkga aylantirilgan turistik ob’ektlar, yong‘inga qarshi kurashadigan tashkilotlar va sanitariya-epidemiologiya nazorati tashkilotlari bilan o‘zaro kelishuvlar.

«Turistik sayohatlar»dagi xizmatlarni loyihalashtirish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Turni loyihalashtirishda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish dasturi «turistik sayohat»dagi xizmatlarga mos kelishi.
2. «Turistik sayohatdagi barcha xizmatlarni loyihalashtirish».

Birinchi bosqichdagi—«turistlarga xizmatlar ko‘rsatish dasturida quyidagilar aniqlanadi»:

- sayohat marshruti;
- xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining ro‘yxati;
- xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining xizmatlar ko‘rsatish vaqt;
- ob’ektlarning diqqatga sazovarligi va ekskursiya tarkibi;
- turistlarning sayrlarga chiqish va har xil o‘yinlar o‘tkazish vaqt ruyxati;
- dam olish tadbirlari;
- marshrutning har bir ob’ektga to‘xtash va ko‘rishga ajratilgan vaqt;
- sayohatda ishtirok etadigan turistlarning soni;
- xizmatlar ko‘rsatuvchi transportning xillari va ularning etarli bo‘lishi;
- gidga, ekskursiya rahbariga, instruktor (yo‘riqchi), chet ellik vakilga talab, ularni marshrutga qayta tayyorlash;
- turistlarga beriladigan reklama, axborotlar varaqasi, bukletlar, marshrut tavsifi yozilgan ma’lumotlarni tayyorlash;
- texnologik xarita;
- turist yo‘llanmasiga axborot varaqasi;
- turistlarga xizmatlar ko‘rsatish dasturi.

Qayd qilinganlardan tashqari GOST. R 50690-94 bo‘yicha yana quyidagi talablar ham turistik marshrutda (turda) bajarilishi ta’milanishi lozim.

- turistlarning buyumlari saqlanishi, hayoti havfsizligi ta’milanishi va tabiatni muhofaza qiluvchi tadbirlarning marshrutda yozilib chiqi lishning majburiyligi;
- marshrutda xizmatlarning aniq va o‘z vaqtida sifatli bajarilishi, maj mualilik, xushmuomilalilik, komfort (qulaylik), xizmat ko‘rsatuvchi larning farosatli, aqliligi, mehmondo‘stligi.

Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasiga ekoturizm- rekreatsiya marshruti

Turistik marshrutning texnologik xaritasi. Turistik marshrutning texnologik xaritasi turning asosiy hujjati hisoblanadi va bu texnologik xarita rasmiy jihatdan to‘ldirilishi va turistik firmaning rahbari tomonidan imzolanishi va muhrlanishi kerak. Quyidagi texnologik xaritani to‘ldirish namunalarini keltiramiz:

Turistik marshrutning texnologik xaritasi

- 1.Marshrutning nomi, mavzusi—*Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasiga ekoturizm-rekreatsiya marshruti*
- 2.Marshrutning muddati (boshlanishi va tugashi)- *1 kun,may 2017 yil.*
- 3.Marshrut turi – *ekoturizm-rekreatsiya*
- 4.Marshrut masofasi (km)-*300 km*
- 5.Marshrut harakatlanishi:
 - a) transportda (km)-*290 km*
 - b)piyoda (km)- *10 km*
 - v) mahalliy transportda (km)-*0*
 - g) suv havzalarida (km)-*5 km*
6. Marshrutdagi turistlar soni- *20 turist va 3 xizmat qiluvchilar.*
7. Marshrutdagi ekskursiyalar mavzusi va yozma shakli- *ilova qilinadi.*
8. Marshrut egasi bo‘lgan korxona manzili- Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi, 9-uy, telefon-.....

Turistik marshrutning hujjatlari. Har bir tur uchun texnologik hujjatlar yig‘indisi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Marshrutda turistlar sayohatning texnologik xaritasi (GOST R 50681 - 94).
3. Marshrutda xizmatlar ko‘rsatuvchi turistik korxonalarining buyurtmalarni bajarish grafigi-...*iyun 2017 yil*
4. Turistik sayohat yo‘llanmasiga axborot varaqasi (GOST R 50681 - 94).

5. Hamkorlar bilan shartnomalar (mehmonxona, transport, ekskursiya byurolari, turistik tashkilotlar).
6. Turning bahosi (kalkulyasiyasi)- 80 000 so`m.
7. Marshrutning yozma matni-*ilova qilinadi*.
8. Marshrutning harakatlanish grafigi-*ilova qilinadi*.
9. Marshrutning karta sxemasi-*ilova qilinadi*.
10. Marshrut davomida (avtobusda, yig‘ilishlarda) beriladigan axborotlar ro‘yxati, manbalari, mazmuni-*ilova qilinadi*.
10. Turistlar uchun maslahat bukleti (marshrutda qanday kiyim yoki poyafzal kerak bo‘lishi, marshrutdagi ekskursiyalar vaqtida nimalar kerakligi va hakozolar).
11. Marshrut haqida ma’lumotlar to‘plami.
12. Marshrut haqida bukletlar, reklama variantlari.
13. Transport vositalarining yo‘l qoidalariga asosan harakatlanish hujjatlari.
14. Marshrutda yo‘l-yo‘lakay to‘xtash ob’ektlari (qisqa muddatli dam olish, choy ichish, axborotlar eshittirish va boshq...).

Marshrutning axborotlar varaqasi. Marshrutning axborotlar varaqasi ikkita bo‘limga ajratiladi: birinchi bo‘limda (a) marshrutda belgilangan va to‘liq bajarilishi rejalashtirilgan axborotlar; ikkinchi bo‘limda (b) vaziyat yuzasidan kelib chiqadigan qo‘shimcha axborotlar.

Bu axborotlar ro‘yxati quydagicha tuziladi:

a) birinchi bo‘limda:

- turistik sayohatning tipi va turi, sayohatda ko‘rsatiladigan asosiy xizmatlarning dasturi, marshrutning masofasi va muddati, sayrlar va ularning darajasi, o‘tkazilish usullari;
- sayohat trassasining yozma matni-har bir ob’ektlarga etib borish vaqtini, bu ob’ektda bo‘lish va nimalar bilan mashg‘ul bo‘lish (joylashtirish, ovqatlantirish, sayr qilish, axborotlar berish, sanitariya-gigena holatlarini bilish, harakatlanish yo‘laklarini aniq belgilash-oshxonaga, soyga, boshqa

imoratlarga, tibbiy xizmat punktiga, hojatxonaga, sartaroshxonaga, saunaga, basseynga va hokazolar);

- sayohat o‘tkaziladigan hudud, rayonning qisqacha geografik tavsifi (relefi, o‘simliklari, daryolari, aholisi va ularning kasbiy faoliyatlarini, diqqatga sazovar joylari, har bir ob’ektida turish vaqtini va bu ob’ektida ko‘rsatiladigan xizmatlar dasturi);
- qo‘sishmicha xizmatlarning ro‘yxati;
- sport ob’ektlarining (o‘yin maydoni, transport to‘xtash joyi, suv havzalari, kutubxona, kinozallar) borligi haqida ma’lumotlar;
- sayohatni tashkil qilgan turistik korxonaning manzili va unga etib borish haqidagi ma’lumotlar.

b) ikkinchi bo‘limda

- marshrutda qatnashadiganlarning yoshini belgilashdagi chegaralanish, ota-onalarning bolalarini o‘zi bilan birga olishi yoki olishga ruxsat berilishi va berilmasligi;

Mavzuda keltirilgan ma’lumotlar, mulohaza–fikrlar turistik marshrutni, turni loyihalashtirish o‘z tarkibiga murakkab talablarni, jarayonlarni olishni ko‘rsatdi. Turistik marshrut loyihasi puxta, har taraflama hisob-kitoblar xulosalar asosida loyihalashtirilsa turistik marshrutni ishlab chiqish va iste’molga berish oson kechadi. Bu turga talab oshadi, natijada turistik marshrut ishlab chiqgan firmaga ishonch kuchayadi. Turizmdagi ma’lumotlardan ma’lumki, turistik ob’ektga turistlar oqiminining ko‘payishiga birinchi navbatda turistik marshrutda bo‘lgan va bu marshrutdagi xizmatlardan qoniqish hosil qilgan turistlarning o‘zi bo‘lgan marshrut haqida yaqinlariga va tanishlariga zavq-shavq bilan so‘zlab berishi (axborot etkazishi hisoblanadi). Bu turizmda eng qulay reklamadir.

Marshrutning trassa pasporti

| Ob'ektlar | Trassa | km | Harakatlanish vositasi |
|---|--|-----------|-------------------------------|
| 1.Samarqand-Forish-Nurota qo‘riqxonasi | Katta O`zbek trakti-Samarqand-Jizzax yo‘li | 175 | Avtobusda |
| 2.Nurota qo‘riqxonasi- Osmonsoy qishlog‘i-marshrutlar | Qo‘riqxonaning kirish hududlariga ekskursiya. Osmonsoy qishlog‘ida dam olish va ovqatlanish | 10 | Piyoda |
| 3.Forish- Samarqand | Katta O`zbek trakti-Jizzax-Samarqand yo`li | 175 | Avtobusda |

Xulosa

- 1.Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasidan ekoturizm-rekreatsiyada foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari ishda keltirildi. Tabiat qo‘riqxonasiga ekoturizm-rekreatsiya marshrutlarini yaratishning muhim ahamiyatlari va o‘rni asoslandi.
2. Nurota davlat tabiat qo‘riqxonasidan ekoturizm-rekreatsiyada foydalanishda quyidagi muammolar aniqlandi:

- Qo‘riqxonanada rahbariyatiga qo‘riqxonada ekologik turizmni rivojlantirishga davlat ruxsat bergen emas;
- Qo‘riqxonaga ekoturizm-rekreatsiya turistik marshrutlari ishlab chiqilmagan;
- Qo‘riqxonada ekoturizm-rekreatsiya so‘qmoqlari yaratilmagan;
- Qo‘riqxonada atrofida ekoturizm so‘qmoqlari, marshrtlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishga haligacha kirishilgan emas;
- Qo‘riqxonada ekologik turizmni rivojlantirishda tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznesi, mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bo‘lishidagi ta’lim – targ‘ibot, qiziqtirish ishlari qoniqarsiz ahvolda;
- Qo‘riqxonanada rahbariyati qo‘riqxonada ekoturizmni rivojlantirishda ichki ekoturizm va xalqaro ekoturizmning milliy reklamasi ichki ekoturizm bozorida ham, tashqi ekoturizm bozoriga ham chiqarish ishlari bilan shug‘ullanmaydi.

Tavsiyalar

- 1.Nurota davlat qo‘riqxonasi rahbariyati qo‘riqxonada ekoturizmni rivojlantirishga davlat ruxsati olishning huquqiy- me’yorlarini tayyorlash va davlat tashkilotlariga chiqish talab qilinmoqda.
- 2.Nurota davlat qo‘riqxonasi rahbariyati qo‘riqxonaning kirish hududlarida ekoturizm-rekreatsiya so‘qmoqlarini yaratish lozim.

3.Qo‘riqxonada ekoturizm so‘qmoqlari, marshrutlari va bu marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishni boshlash.

4.Qo‘riqxonada rahbariyati ekoturizmni rivojlantirishda tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznesi, mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bo‘lishidagi ta’lim – targ‘ibot, qiziqtirish ishlarini boshlashi va follashtirishi lozim.

5.Qo‘riqxona rahbariyati qo‘riqxonada ekoturizmni rivojlantirishda ichki ekoturizm va xalqaro ekoturizmning milliy reklamasi ichki ekoturizm bozorida ham, tashqi ekoturizm bozoriga ham chiqarish ishlari bilan jiddiy shug‘ullanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2016 йил 2-декабрдаги ПФ-4861 сонли Фармони // “Lex.uz”.
- 2.O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni -Toshkent, 2017
- 3.O’zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to’g‘risda Milliy ma’ruza.- Т.: Chinar ENK, 2006
- 4.Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш Концепцияси.Экология хабарномаси, № 2,Тошкент,2007.5-14 б.
5. Абдусаломов F. Туризм соҳасида ютуқлар кўп, камчиликлар ҳам йўқ эмас//Зарафшон газетаси, 24 декабр, 159 (22.797)-сон.
- 6.Абдужабборов. М.А. Карст гор Южного Узбекистана. - Т.: 1990.
- 7.Абдуллаев О.,Исмоилов Р. Кичик ва ўрта бизнесни бошқариш.–Наманган, 2001.- 115 б.
- 8.Абдумаликов Р. Туризм. – Т.: Ўқитувчи, 1978. - 90 с.
- 9.Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник-М.:Аспект Пресс,2002-470 с.
- 10.Ан.Э.С.,Заповедные территории Узбекистана.-Ташкент, Издательство «Узбекистан», 1980.-71 с.
- 11.Джумаев Т. Горы Узбекистана, природа, хозяйство, отдых, (Региональные проблемы) -Т.: Мехнат, 1998.- 224 с.
- 12.Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000 - 336 с.
- 13.Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: Мысль, 1972. -303 с.
- 14.Комилова Ф. Халқаро туризм бозори. –Т.:TDIU, 2001. - 64 б.

- 15.Крачил Н.П. География туризма. - Киев, 1987.- 207 с.
- 16.Солиев А. Ўзбекистон географияси.-Тошкент, 2014
- 17.Хошимов М.Х. Ўзбекистон экологик туризми(монография).-Самарқанд. 2009
- 18.Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм.-Самарқанд. 2010
- 19.Матяқубов У.,Экологик вазиятни инобатга олиб туризм самарадорлигини ошириш йўналишлари ва истиқболлари, и.ф.н.,илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация авторефарати.- Самарқанд,2011,22 б.
- 20.Исломова Р.А., Экологик туризмни ривожлантириш муаммолари.- Тошкент-Иқтисодиёт-2014, 131 б.
- 21.Нигматов А.Н.Экология хуқуки схемалар ва тушунчаларда.-Тошкент, 1999.-147 б.
- 22.Шамуратова Н. Т., Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари. г.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати, Тошкент, 2011,22 б.
- 23.Lindberg K., Hawkins D.E. (eds) Ecotourism: a Guide for Planners and Managers. North Bennington, Vermont. 1993,256 p.

www.zionet.uz

www.lex.uz

www.uzbektourizm.uz

<http://www.tourism.uz/>

<http://www.tour.uz/>

www.world-tourism.org

